

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI

“KASBIY TA'LIM” kafedrası

RADJABOV BAHODIR ABDUG'AFFOROVICH tomonidan

**““Nomoddiy aktivlar hisobi” mavzusini o'rganishda ta'lim
texnologiyalaridan foydalanish va qo'llash yo'llari” mavzusida**

**5111000 -“Kasb ta'lim”(5320900-Buxgalteriya hisobi va Audit) ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA TAVSIYA ETILDI»

«Kasbiy ta'lim» kafedrası mudiri

_____i.f.d.,prof. A. Omonov

«__»_____2014 y.

Ilmiy rahbar:_____i.f.d., prof. D. Tojiboyeva

«__»_____2014 y.

Ilmiy maslahatchi:_____dots.O. Astanakulov

«__»_____2014 y.

TOSHKENT – 2014

Men, *Radjabov Bahodir Abdug'afforovich* ushbu BMini mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

Talabaning F.I.Sh. va imzosi, sana

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI MAVZUSIDA DARS O'TISHNING NAZRIY ASOSLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	7
1.1. Nomoddiy aktivlar hisobining maqsad va vazifalari.....	7
1.2. Nomoddiy aktivlar hisobi mavzusida dars o'tishda huquqiy me'yorlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar va rasmiy ma'lumotlar bilan ishlash.....	20
II BOB. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA "NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI" MAVZUSIDA DARS O'TISHDA ULARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	26
2.1. Ta'lim texnologiyalari, ularning dars jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati.....	26
2.2. Nomoddiy aktivlar hisobi mavzusini o'rganishda samarali ta'lim texnologiyalarini tanlash mezonlari.....	35
III BOB. NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI MAVZUSI BO'YICHA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING ISTIQBOLLARI.....	44
3.1. Nomoddiy aktivlar hisobi mavzusi bo'yicha darsni "mujassamlashgan savollar (skarabey)" texnologiyasi orqali tashkil etish...	44
3.2. Nomoddiy aktivlar hisobi mavzusi bo'yicha ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish.....	50
XULOSA.....	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	63
IIOVALAR	

KIRISH

Bugungi kunda respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash bilan birga uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish va ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Ta'lim to'g'risda"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi bilan zamonaviy mutaxassis kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimedia vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta'limning bugungi vazifasi talabalarni tobora ortib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, olingan ma'lumotlardan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Hozirgi kunda ta'lim tizimining barcha shakldagi muassasalarida dars jarayoni ilg'or, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan yangi va zamonaviy uslubiyot bilan amalda ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, ta'lim berishda fan, texnika va ilg'or texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki, ta'lim muassasasi o'sib kelayotgan shaxsni o'qitish jarayonida ularga ta'lim olish sharoitlarini yaratadi. O'quvchi-talabalarning bilimga ehtiyojlari va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo'naltirilgan bo'lishi o'qituvchi faoliyatining mas'uliyatini oshiradi.

Yuksak kasbiy mahoratga ega bo'lgan iqtisodchi – pedagoglarni tayyorlashda o'quv jarayonini tashkil etish, hamda fanni o'rganishda samarali metodlarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa o'quvchi – talabalarni o'rganilayotgan fanlar va mutaxassisliklari bo'yicha chuqur bilim olishga, iqtisodiy tafakkur shakllanishiga yo'naltiruvchi vositalardan foydalanish hozirgi kunda ta'lim berish va o'qitishning muhim jihatidir.

Mavzuning dolzarbligi: “Kelajakda O‘zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma’naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirishi lozim”¹

Dars berishning turli uslub va usullarini dars jarayonida qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning bilim olishini faollashtiradi, o‘zlashtirish salohiyatini yuksaltiradi. Shu nuqtai nazarda yurtboshimiz I. A. Karimov tomonidan e’lon qilingan “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”²gi qarorda ham ana shunday ilg‘or ta’lim texnologiyalarini yurtimiz ta’lim tizimiiga keng joriy qilish zarurligi ta’kidlangan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Ushbu yo‘nalishdagi adabiyotlar dars o‘tishning turli metodlariga bag‘ishlangan N.Azizxo‘jayevaning “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”, N.Saidahmedovning “Yangi pedagogik texnologiyalar”, J.Yo‘ldoshev, S.Usmonovlarning “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish” kabilar bo‘lib, ularda asosiy e’tibor pedagogik texnologiya, dars o‘tish metodlari, interfaol metodlarga qaratilgan, ammo ularni iqtisodiy fanlarda qo‘llash masalalariga e’tibor berilmagan. Birgina D.Tojiboyeva, A.Yo‘ldoshevlarning “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” darsligida iqtisodiy fanlarni o‘qitish masalalariga to‘xtalib, ba’zi bir mavzularga turli metodlarni qo‘llab ko‘rsatilgan. Buxgalteriya hisob-kitoblarini yuritishda A.Karimov, F.Islomov, A.Avloqulovlarning “Buxgalteriya hisobi”, I. Ochilov va J. Qurbonboyevlarning “Moliyaviy hisob” darsliklari, B. Bolibekov va boshqalarning “Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish” hamda F. G‘ulomovanning “Buxgalteriya hisobi bo‘yicha mustaqil o‘rganish uchun” qo‘llanmalari va boshqa buxgalteriya hisobi fanidan tayyorlangan darslik, o‘quv qo‘llanmalarni ko‘rsatish

¹ Talabalar dunyosi jurnali.2001 yil sentabr 9-son.2-bet.

² Ma’rifat gazetasi.18-avgust.2012-yil.

mumkin. Lekin ularda dars o'tish metodikasi ko'rib chiqilmagan, umuman bunday maqsad qo'yilmagan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – “Buxgalteriya hisobi” fanini, xususan “Nomoddiy aktivlar hisobi” mavzusini o'rganishda ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda samarali ta'lim jarayonini tashkil etish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- Nomoddiy aktivlar hisobining maqsad va vazifalari;
- Nomoddiy aktivlar hisobi mavzusida dars o'tishda huquqiy me'yorlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar va rasmiy ma'lumotlar bilan ishlash;
- Ta'lim texnologiyalari, ularning dars jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati;
- Mavzuni o'rganishda samarali ta'lim texnologiyalarini tanlash mezonlari;
- Mavzu bo'yicha darsni “mujassamlashgan savollar(skarabey)” texnologiyasi orqali tashkil etish;
- Nomoddiy aktivlar hisobi mavzusi bo'yicha ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob'yekti bo'lib, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimidagi ““Nomoddiy aktivlar hisobi” mavzusini o'rganishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va qo'llash yo'llari” mavzusi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti - “Nomoddiy aktivlar hisobi” mavzusini o'rganishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish hamda foydalanish jarayonini takomillashtirishdir.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy-nazariy ahamiyati:

- ❖ “Nomoddiy aktivlar hisobi” va uni o'rganish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib o'tildi;
- ❖ “Nomoddiy aktivlar hisobi” mavzusini o'rganish jarayonida ta'lim texnologiyalarining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;
- ❖ bitiruv malakaviy ishida o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan o'qitish jarayonida ta'lim texnologiyalarini qo'llash samaradorligini oshirishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, oltita reja, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 67 saxifada va ilovalarda mujassamlashgan. Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi Nomoddiy aktivlar hisobi mavzusida dars o'tishning nazriy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, unda Nomoddiy aktivlar hisobining maqsad va vazifalari hamda mavzu bo'yicha dars o'tishda huquqiy me'yorlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar va rasmiy ma'lumotlar bilan ishlash metodikasi keng yoritilgan. Ikkinchi bobi Ta'lim texnologiyalari va "Nomoddiy aktivlar hisobi" mavzusida dars o'tishda ulardan foydalanishning ahamiyati deb nomlanib, bu bobda ta'lim texnologiyalari, ularning dars jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati va mavzuni o'rganishda samarali ta'lim texnologiyalarini tanlash mezonlariga umumiy tavsif berilgan. Uchinchi bobda esa, nomoddiy aktivlar hisobi mavzusi bo'yicha darsni "mujassamlashgan savollar (skarabey) texnologiyasi orqali tashkil etish hamda nomoddiy aktivlar hisobi mavzusi bo'yicha ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Xulosa qismida "Nomoddiy aktivlar hisobi" mavzusini o'rganishda ta'lim texnologiyalarini qo'llash uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

I BOB. NOMODDIY AKTIVLAR HISOBİ MAVZUSIDA DARS O'TISHNING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

1.1. Nomoddiy aktivlar hisobining maqsad va vazifalari.

Ijtimoiy hayotda yangi sifat o'zgarishlari yuz berishi uchun har bir inson o'ziga biriktirilgan fanni chuqur egallashi, unga oid turli muammolarni keltirib chiqaradigan sabablarini o'rganib o'zlarining tegishli xulosalarini bera olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot ko'p jihatdan odamlarning iqtisodiy bilimi va tajribasi, iqtisodiy idrok kuchiga bog'liq.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilim olishga, iqtisodiyot sir- asrorlarini, shu bilan birga, fanni chuqur o'rganishga bo'lgan harakat va talablarni ham kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy qonunlarni yaxshi biladigan, turli vaziyatlarni taqqoslash, iqtisodiy resurslar cheklanganligi sharoitida, samarali xo'jalik yuritish uchun muqobil variantlarni to'g'ri tanlash va qaror qabul qilish malakasiga ega bo'lgan iqtisodchilar tayyorlashnigina emas, balki jamiyatning barcha a'zolarida iqtisodiy fikrlashni shakllantirishni ham talab qiladi.³

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holati va unda bo'layotgan o'zgarishlar iqtisodiy sohada yuz berayoriyatgan o'zgarishlarga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi, shu sababli ularning faoliyatini o'rganish talabi yuzaga kelgan bo'lib, bunda ko'plab iqtisodiy fanlarga tayanishimiz mumkin. Bunday fanlarning eng asosiylaridan biri bu - buxgalteriya hisobidir. Undagi har bir mavzu o'rganuvchidan diqqat-e'tiborni, o'rgatuvchidan esa yuksak kasbiy bilim va mahoratni talab etadi. Tadqiqot ishida men xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida muhim o'ringa ega bo'lgan "Nomoddiy aktivlar hisobi" mavzusiga alohida diqqat qarataman.

³ "Iqtisodiy pedagogika" D.Tojiboyeva., N.Xo'jayev., G.Avalova. Toshkent-2008, bet-3

O'zbekiston Respublikasining negizida mulkning davlat shakli bo'lgan rejali iqtisodiyotdan xo'jalik yuritishning bozor modeliga o'tish jarayonida yangi mulk shakllari, jumladan xususiy mulkning paydo bo'lishi sababli buxgalteriya hisobi tizimida ham tub o'zgarishlar qilish zaruriyati tug'ildi.

Hisobning har bir bo'limi va analitik uslublarning ko'pchiligi amalda nazariy, uslubiy yondoshishni va asoslashni talab qiladi. Bozor iqtisodiga o'tish bilan hisobda yuzaga kelgan muammolarni yechish yo'llari hamda foydalaniladigan tushunchalarning doirasi kengaydi. Lekin buxgalteriya hisobining nazariy asoslari, ularning mohiyati va maqsadi o'zgarmasdan qoldi. Moliyaviy hisobotlarning elementlari bo'lgan aktiv va passivlarning yangi ko'rinishlari, ularni baholash uslublari, moliyaviy natijalarni hisob-kitob qilish va xarajatlarni hisobga olish yo'llari, axborotlarni turkumlarga ajratuvchi hisobvaraqlar rejasining yangi ko'rinishi o'z ifodasini topdi. Ayniqsa, buxgalteriya hisobi tizimida yangi tushuncha nomoddiy aktivlar, ya'ni «**ko'rinmas aktivlar**» (**intangible assets**)ni baholash, hisobga olish, amortizatsiyani hisoblash usullari, shuningdek likvidatsiya qilish tartiblarini bayon qilishni taqozo etadi.

Nomoddiy aktivlar hisobining maqsadi – mulk, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqlari asosida XYuSga tegishli bo'lgan nomoddiy aktivlarning harakatini hisobda amalga to'g'ri, aniq va o'z vaqtida amalga oshirilishidir. Uning vazifalari ko'zlagan maqsadidan kelib chiqadi.

Buxgalteriya hisobida nomoddiy aktivlarni hisobga olishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ◆ Nomoddiy aktivlarni boshqa aktivlardan ajratilgan holda guruhlariga bo'lib, ularni hisobga olishni tashkil qilish;
- ◆ Nomoddiy aktivlarni joriy hisobda va buxgalteriya balansida tegishli andozalarga hamda me'yoriy hujjatlarga asosan to'g'ri va o'z vaqtida baholash;
- ◆ Korxonaga mavjud va kamyob tushgan nomoddiy aktivlar bo'yicha buxgalteriya hisobi andozalariga va me'yoriy hujjatlarga asosan amortizatsiya hisoblash;

◆ Mavjud nomoddiy aktivlardan zarur joyda tadbirkorlik va ishbilarmonlik bilan samarali foydalanishni tashkil qilish;

◆ Eskirgan, xo'jalik uchun oshiqcha bo'lgan nomoddiy aktivlarni o'z vaqtida hisobdan chiqarishni ta'minlash;

◆ Hisobdan chiqarilgan nomoddiy aktivlar bo'yicha moliyaviy natijalarni to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash.

Buxgalteriya hisobining 7-son "Nomoddiy aktivlar" nomli milliy standartida nomoddiy aktivlarga quyidagicha ta'rif beriladi: « **Nomoddiy aktivlar** – korxona tomonidan ulardan ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yohud ma'muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddat mobaynida tutib turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan mol-mulk obyektlari». ⁴ Berilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki nomoddiy aktivlar bu:

- **Korxonaning mulkiy obyektidir** - nomoddiy aktivlarni aksariyat qismi korxona tomonidan sotib olinadi, ularga egalik qiladi va buxgalteriya balansida o'z mulkining bir qismi sifatida aks ettiradi;

- **Moddiy (natural)-buyum shakliga ega emas** – nomoddiy aktivlar jismo-niy ko'rinishga ega emasdir;


- **Sotish uchun mo'ljallanmaydi** - nomoddiy aktivlar qayta sotish uchun sotib olinmaydi, balki xo'jalik faoliyatida foydalanish, nazorat qilish va boshqarish uchun sotib olinadi;

- **Xo'jalik faoliyatida uzoq muddat foydalaniladi** - odatda nomoddiy aktivlar tarkibiga korxona faoliyatida bir yildan uzoq muddat faoliyat ko'rsatadigan (foydalaniladigan) va shu davr mobaynida egalariga huquq va ustunliklar beradigan aktivlar kiritiladi.

Nomoddiy aktivlar tarkibi turlicha bo'lib, ular bir qator belgilari bo'yicha tarkibiy qismlarga ajratilib o'rganiladi: identifikatsiyalash, sotib olish, kutilayotgan

⁴ O'zbekiston Respublikasi BHMS MV 25.03.2005

ustunliklar berish davri, korxonadan ajralishi va boshqalar bo'yicha turkumlanishi mumkin.



1-chizma. Nomoddiy aktivlarni turkumlanishi⁵.

Buxgalteriya hisobida nomoddiy aktivlarni hisobga olishni soddalashtirish maqsadida ularni turkumlab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Amaliyotda nomoddiy aktivlarning quyidagi turlari mavjud:

♦ **Patentlar** - korxona tomonidan muayyan mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun foydalaniladigan, qonun bilan himoyalangan guvohnoma hisoblanadi. Patent korxona tomonidan belgilangan me'yoriy hujjatlar asosida sotib olinadi;

♦ **Nou-xau** - ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati davomida foyda keltiruvchi yangi texnologiyalardir. Uni ta'sischi kelishuvida aniqlangan qiymat bo'yicha korxona ustav kapitaliga ulush hisobida kiritish mumkin. Nou-xau texnik, tijorat,

⁵ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

boshqaruv, moliya kabi xarakterdagi texnik bilim va amaliy xarakterdagi boshqa bilimlarni o'z ichiga oladi;

♦ **Tovar belgilari, savdo markalari va atamalari** - belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan hamda boshqa firmalar tomonidan ruxsat berilmagan tarzda foydalanishdan qonun bilan muhofaza qilingan korxonalar nomi va bu korxonalar mahsulotlarining nomlari;

♦ **Sanoat namunalari** - ishlab chiqarish-texnika maqsadlaridagi buyumlar va xalq iste'moli tovarlarining tashqi qiyofasini belgilaydigan badiiy-konstruktorlik echimlaridan foydalanish huquqi. Sanoat namunalariga hajmiy model (avtomobil, stanok, mebel va hokazo) yoki yassi tasvir-sanoat naqshlari (gazlama, gilam gullari, shrift shakli va hokazo) misol bo'la oladi;

♦ **Dasturiy ta'minot** - texnik dastur vositalari, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo'yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig'indisi;

♦ **Gudvill** - korxonani xarid qilish choyida yuzaga keladi va sotib olinayotgan korxona uchun haq hamda uning sof (majburiyatlarini chegirgan holdagi) aktivlarining baholovchi (bozor) qiymati o'rtasidagi farq;

♦ **Tashkiliy xarajatlar** - yangi xo'jalik yurituvchi sub'ektni barpo etish xarajatlari, ya'ni ishni boshlash xarajatlari;

♦ **Franshizalar** - bir korxona tomonidan boshqasiga unga qarashli aktivlardan, shu jumladan, savdo markalari va atamalari kabi nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqining berilishi, buning ustiga, bevosita belgilanishi bo'yicha mazkur aktivlardan foydalanish hamda taqdim etiladigan xizmatlar (tovarlar)ning belgilangan sifat standartlariga rioya qilish bunday huquq berilishlarining majburiy sharti hisoblanadi;

♦ **Mualliflik huquqlari** - ilmiy, adabiy, musiqa yoki boshqa asarlarni nashr qilish, ijro etish yoki boshqa turdagi foydalanish huquqi;


♦ **Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqi** - xo'jalik yoki boshqa maqsadlarda yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishni ta'minlovchi huquq,

ammo erdan foydalanish huquqi mazkur er uchastkasini mulk qilib olishni bildirmaydi.

Yuqorida ko`rib chiqilgan nomoddiy aktivlarning ayrimlari, **almashtirishga tegishli nomoddiy aktivlar bo`lib**, ular firmaning boshqa aktivlaridan alohida identifikatsiyalashtiriladigan va alohida sotilishi mumkin. Masalan, patentlar, mualliflik huquqlari, franchayzing va savdo markalari. Ular sotib olingan yoki firma ichida ishlab chiqarilgan bo`lishi mumki

Nomoddiy aktivlarning boshqa bir turlari esa, **almashtirishga tegishli bo`lmagan identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktivlar** bo`lib, ular firmaning boshqa aktivlari bilan birga yoki alohida identifikatsiyalanishi mumkin, lekin ular alohida sotilishi mumkin emas. Almashtirishga tegishli bo`lmagan nomoddiy aktivlarga gudvill, tashkiliy xarajatlar kabilarni misol keltirish mumkin.

Nomoddiy aktivlarni baholashda «Nomoddiy aktivlar» nomli 7-son BHMAga asoslanilish lozim. Nomoddiy aktivlarni baholashda quyidagi baho (qiymat)lardan foydalaniladi⁶:



1-rasm. Nomoddiy aktivlarning baholash qiymatlari

⁶ 7-BHMS 2005-yil 25-martda MV da tasdiqlangan.

Dastlabki qiymat - aktivni xarid qilishda haqiqatda to'langan pul mablag'lari yoki uni barpo etishda amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlardir. Xarid qilishning haqiqiy qiymati nomoddiy aktivni xarid qilish va uni ishlatish uchun tayyor holga keltirishda qilingan barcha xarajatlarni, ya'ni: xarid narxi, yuridik yig'imlar va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. Tashkilot tekinga olgan nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati ekspert yo'li bilan bozor narxida baholangan qiymat bo'yicha tan olinadi. Tekinga olingan nomoddiy aktiv kirim qilingan sanada amal qilgan narx asosida joriy bozor qiymati shakllantiriladi. Amaldagi narx to'g'risidagi ma'lumotlar ham hujjatlar va ekspert yo'li bilan tasdiqlanishi kerak.

Sotish qiymati - nomoddiy aktivlarni bitim paytida manfaatdor taraflar o'rtasida ayirboshlash mumkin bo'lgan summadir.

Tugatilish qiymati - chiqib ketishga doir kutilayotgan xarajatlarni chiqarib tashlagan holda aktivning foydali xizmati natijasida uni tugatish paytida paydo bo'ladigan aktivlarning taxmin qilinayotgan qiymatidir.

Qoldiq qiymati - aktiv hisob va hisobotda aks ettiriladigan jam'oyarilgan amortizatsiyani chiqarib tashlagan holda nomoddiy aktivlarning dastlabki yoki joriy qiymatidir.

O'rnini qoplash qiymati - korxona aktivdan keyinchalik foydalanish hisobiga qoplashni mo'ljallayotgan summa, shu jumladan tugatilish qiymati.

Nomoddiy aktiv pulga xarid qilinsa, uning qiymati kontraktida ikkilamchi bozorda faol ishlayotgan shu singari aktivga aniqlangan bozor narxi bo'yicha ko'rsatilishi mumkin.

Nomoddiy aktiv xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan yaratilgan va uni yaratish chiqimlarini aniq belgilash mumkin bo'lgan hollarda nomoddiy aktiv haqiqiy tannarx bo'yicha aks ettiriladi.

Nomoddiy aktiv qiymatini belgilash mumkin bo'lgan hollarda u aktiv sifatida alohida modda bilan aks ettirilmaydi.

Korxona tomonidan gudvill aktiv sifatida aks ettirilmaydi, chunki u korxonani sotib olish paytida xarid qilish narxi bilan mazkur sub'ektni tashkil qiluvchi aktivlarning haqiqiy narxi o'rtasidagi tafovut sifatida yuzaga keladi.

Ba'zi vaqtlarda nomoddiy aktivlarni qayta baholashga ehtiyoj tug'iladi. Nomoddiy aktivni qayta baholaganda nomoddiy aktivning butun zanjiri qayta baholanishi kerak. Qayta baholash natijasida nomoddiy aktiv balans qiymati ko'paygan holda ushbu ko'payish avvalgi bahodan oshadigan summada «Zahira sarmoya» hisobvarag'ining kreditida aks ettirilishi lozim. Qayta baholash natijasida nomoddiy aktivning balans qiymati kamaygan bo'lsa, bu kamayish avvalgi bahodan oshadigan summada xarajat sifatida tan olinadi.

Nomoddiy aktivlarni buxgalteriya hisobida hisobga olish uchun quyidagi hisobvaraqlar ochilgan:

0410-«Patentlar, nou-xau va litsenziyalar»

0420-«Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalari»

0430-«Dasturiy ta'minot»

0440-«Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqi»

0450-«Tashkiliy xarajatlar»

0460-«Franshizalar»

0470-«Mualliflik huquqlari»

0480-«Gudvill»

0490-«Boshqa nomoddiy aktivlar».

Nomoddiy aktivlarning kirim qilinishi quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

- ◆ Korxona tomonidan yaratilishi;
- ◆ Boshqa korxonalardan sotib olish;
- ◆ Tekinga olish;
- ◆ Nomoddiy aktivni muassislar tomonidan korxonaning ustav kapitaliga ularning ulushi tarzida yoki aktsiyalarning haqini to'lash hisobiga kiritish.

Nomoddiy aktivlarni kirim qilishda quyidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi:

- ◆ Nomoddiy aktivlar korxona tomonidan yaratilganida - nomoddiy aktivni barpo etish to'g'risidagi shartnoma; korxona rahbarining barpo etilgan ob'ekt to'g'risidagi hujjatlarga maxfiylik maqomini berish va bu hujjatlardan foydalanuvchilar doirasini cheklab qo'yish yo'li bilan ob'ektni nou-xau sifatida xizmat yoki tijorat siri rejimini ta'minlash to'g'risidagi muhofaza hujjati; ob'ektni

barpo etishga ketgan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar; ob'ektni kirim qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma va baholash dalolatnomasi;

◆ Pulga sotib olingan taqdirda - huquqlar berilganligi to'g'risidagi shartnoma, amalga oshirilgan to'lovlarni tasdiqlovchi hujjatlar, qabul qilib olish dalolatnomasi;

◆ Tekinga olingan taqdirda - huquqlar berilganligi to'g'risidagi shartnoma, qabul qilib olish dalolatnomasi va baholash dalolatnomasi;

◆ Nomoddiy aktivni muassislar tomonidan korxonaning ustav fondiga ularning ulushi tarzida yoki aktsiyalarning haqini to'lash hisobiga kiritilganida - ta'sis hujjatlari, qabul qilib olish dalolatnomasi va baholash dalolatnomasi.

Tegishli shartnomalar asosida korxona mutaxassisleri va chetdan jalb etilgan mutaxassislar kuchi bilan barpo etilgan nomoddiy aktivlar ob'ektlari 0830-«Nomoddiy aktivlarni sotib olish» hisobvarag'ining krediti bilan korrespondentsiyada **0410-0490** hisobvaraqlar debeti bo'yicha haqiqiy tannarxiga qarab nomoddiy aktivlar sifatida kirim qilinadi.

Boshqa korxona va shaxslardan sotib olingan nomoddiy aktivlar 0830-«Nomoddiy aktivlarni sotib olish» hisobvarag'ining krediti bilan korrespondentsiyada **0410-0490** hisobvaraqlar debeti bo'yicha kirim qilinadi.

Amortizatsiya nomoddiy aktivning foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya qiymatini muntazam ravishda taqsimlash va ko'chirish ko'rinishida eskirishning qiymat ifodasidir. Nomoddiy aktivlarning amortizatsiya qiymati taxmin qilinayotgan tugatilish qiymatini chiqarib tashlagan holda aktivning dastlabki qiymati yoki moliyaviy hisobotlarda ko'rsatilgan qiymat o'rnini bosadigan boshqa qiymatning summasidir.

Nomoddiy aktivlarga eskirish hisoblashda **«Nomoddiy aktivlar» nomli 7-son BHMAga** hamda O'zbekiston Respublikasining **Soliq Kodeksiga** amal qilish lozim.

«Nomoddiy aktivlar» nomli 7-son BHMAga asosan nomoddiy aktivning amortizatsiya qiymati uning foydali xizmat muddatidan oshmagan holda, foydali xizmat muddatini belgilash mumkin bo'lmagan paytda 5 yilni hisobga olib (lekin

korxonaning faoliyat muddatidan oshmagan holda) muntazam asosda taqsimlanishi kerak⁷.

Quyidagi nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblanmaydi:

♦ Haqiqiy emas (ishlamaydigan) deb topilgan va huquqiy oqibatlar keltirib chiqarmaydigan nomoddiy aktivlar;

♦ Korxonaga tegishli bo'lmagan, lekin huquq egasi tomonidan litsenziya shartnomasi yoki boshqacha shartnoma (tanho bo'lmagan litsenziya) bo'yicha berilgan va balansdan tashqari hisobvaraqa da hisobga olinadigan nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqi asosida korxona foydalanayotgan nomoddiy aktivlar;

♦ Korxonaga tegishli tovar belgisiga va xizmat ko'rsatish belgisiga egalik huquqi, shuningdek vaqt o'tishi bilan ularning iste'mol xususiyati o'zgarmaydigan tovar chiqarilgan joy nomiga egalik huquqi;

♦ Gudvill.

Amortizatsiyalanuvchi qiymat muntazam ravishda nomoddiy aktivni foydali ishlatishning butun davriga taqsimlanadi. Amortizatsiya turli xil usullarni qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi: to'g'ri chiziqli usul, kamayib boruvchi qoldiq usuli va hosil qilingan birliklar summasi amortizatsiyani hisoblab yozish usuli kiradi.

To'g'ri chiziqli usul nomoddiy aktivni foydali ishlatishning butun davri mobaynida eskirishning doimiy summalarini hisoblab yozishdan iborat.

Kamayib boruvchi qoldiq usuli bo'yicha muntazam hisoblab yozilayotgan summalar foydali ishlatish muddati davomida kamayadi.

Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblab yozish usuliga binoan amortizatsiya miqdori faqat nomoddiy aktiv qancha marta ishlatilishiga yoki qancha mahsulot birligi ishlab chiqarilishi kutilayotganiga bo'Yoliq bo'ladi.

To'g'ri chiziqli usul. Amortizatsiyani hisoblab yozish usullaridan birortasini qo'llashni aniqlash qiyin bo'lgan hollarda hisoblab yozishning to'g'ri chiziqli usulidan foydalaniladi.

⁷ "Buxgalteriya hisobi" A.Karimov va boshqalar. Toshkent "Sharq" 2005

Amortizatsiyani hisoblashda uning tugatilish qiymatiga e'tibor berish lozim. Agar boshqa summani ishonchli tarzda hisob-kitob qilish mumkin bo'lmasa, nomoddiy aktivning qoldiq qiymati nolga teng bo'ladi.

Nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari ular hisoblab o'tkazilgan hisobot davrida buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettiriladi. Nomoddiy aktivlarning ayrim ob'ektlari bo'yicha ajratmalar tegishli summalarni jam'alarish yo'li bilan yoki ob'ektlarning dastlabki qiymatini kamaytirish yo'li bilan buxgalteriya hisobida aks ettiriladi.

Nomoddiy aktivlar eskirishining hisoblangan summasi ishlab chiqarish xarajatlari (muomala xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, sarmoya qo'yish)ni hisobga olish hisobvaraqlari debeti va 0510-0590-hisobvaraqlar kreditiga kiritiladi.

Korxonalar tegishli nomoddiy aktivlar bo'yicha jamg'arilgan amortizatsiya to'g'risidagi axborotni quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiradi:

0510-«Patentlar, nou-xau va litsenziyalarning eskirishi»;

0520-«Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalarning eskirishi»;

0530-«Dasturiy ta'minotning eskirishi»;

0540-«Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqining eskirishi»;

0550-«Tashkiliy xarajatlarning eskirishi»;

0560-«Franshizalarning eskirishi»;

0570-«Mualliflik huquqlarining eskirishi»;

0590-«Boshqa nomoddiy aktivlarning eskirishi».

Ushbu hisobvaraqlarning kreditida hisoblangan eskirish summolari, debetida esa nomoddiy aktivlarning chiqib ketishida hisoblangan eskirish summalarining o'chirilishi aks ettiriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmat ko'rsatish yoxud tashkilotni boshqarish uchun foydalanilmayotgan nomoddiy aktivlar ob'ektlarining qiymati buxgalteriya balansidan hisobdan chiqarilishi kerak.

Quyidagi xo'jalik operatsiyalari natijasida nomoddiy aktivlar ob'ektlarining qiymati korxona aktivlari tarkibidan chiqib ketadi:

- ◆ realizatsiya, ya'ni huquqlarni berish to'g'risidagi shartnoma asosida iqtisodiy ma'noda sotganda va yuridik ma'noda egalik huquqi to'xtatilganida;

- ◆ bundan buyon foydalanish maqsadga muvofiq emasligi sabablariga ko'ra hisobdan chiqarilganida;

- ◆ nomoddiy aktivning amal qilish muddati tugagach hisobdan chiqarilganida;

- ◆ boshqa korxonalarning ustav kapitaliga ulush sifatida qo'shilganida;

- ◆ huquqlarni berish to'g'risidagi shartnoma asosida boshqa shaxslarga tekin topshirilganida.

Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarilishi bilan boYoliq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun quyidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi:

- ◆ egalik qilish huquqi boshqalarga berilganida - huquqni boshqa birovga berish to'g'risidagi shartnoma, haq olinganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati va boshqa hujjatlar, huquqni boshqalarga berish qiymatini baholash to'g'risidagi mustaqil baholovchi xulosasi, chiqib ketish dalolatnomasi;

- ◆ amal qilish muddati tugatilganligi tufayli hisobdan chiqarilganida - hisobdan chiqarish to'g'risidagi dalolatnoma;

- ◆ boshqa korxonalarning ustav kapitaliga qo'yganida - ta'sis hujjatlari, foydalanish huquqini boshqa birovga berish to'g'risidagi shartnoma, foydalanish huquqini boshqalarga berish qiymatini baholash to'g'risidagi mustaqil baholovchi xulosasi, foydalanish huquqini berish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi, chiqib ketish dalolatnomasi;

- ◆ tekinga berilgan taqdirda - foydalanish huquqini boshqa birovga berish to'g'risidagi shartnoma, foydalanish huquqini berish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi, chiqib ketish dalolatnomasi.

Nomoddiy aktivlar chiqib ketganida ularning dastlabki qiymati nomoddiy aktivlarni hisobga olishning tegishli hisobvaraqlari kreditidan 9220-«Boshqa aktivlarning realizatsiyasi va boshqacha chiqib ketishi» hisobvarag'i debetiga hisobdan chiqariladi. Nomoddiy aktivlarni chetga sotishdan tushgan tushum 9220-

«Boshqa aktivlarning realizatsiyasi va boshqacha chiqib ketishi» hisobvarag'i krediti bo'yicha 4890-«Boshqa shaxslarning qarzlar-joriy qismi» va 0990-«Boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzlar» hisobvaraqlari bilan korrespondentsiyada aks ettiriladi.

Nomoddiy aktivlar chiqib ketganida ular bo'yicha hisoblangan eskirish summasi 0510-0590-hisobvaraqlari debetidan 9220-«Boshqa aktivlarning realizatsiyasi va boshqacha chiqib ketishi» hisobvarag'i kreditiga hisobdan chiqariladi.

1-jadval.

Nomoddiy aktiv ayrim ob'ektlariga egalik huquqining amal qilish muddatlari.⁸

Nomoddiy aktiv ob'ektlari	Huquq amal qila boshlagan vaqt	Asosiy muddat (yil)	Uzaytirilgandan keyingi qo'shimcha muddat (yil)
Ixtiro	Birinchilik vaqtidan	20 (patent bo'yicha) 5 (dastlabki patent bo'yicha)	Ko'zda tutilmagan
Sanoat namunasi	Birinchilik vaqtidan	5	Ko'pi bilan 5 yil
Tovar belgisi	Birinchilik vaqtidan	10	Har gal 10 (eng ko'p muddati cheklanmagan)
EHM uchun dastur	U qachon chiqarilganidan qat'iy nazar, 3-shaxslar foydalana oladigan ob'ektiv shakl berilgan paytdan boshlab	Muallifning butun hayoti mobaynida	+50
Mualliflik huquqi	Qachon e'lon qilinganidan qat'iy nazar, asarga 3- shaxslar foydalana oladigan ob'ektiv shakl berilgan sanadan boshlab	Muallifning butun hayoti mobaynida	+50
Nou-xau	Nou-xauga 3-shaxslar foydalana oladigan ob'ektiv shakl berilgan va nou-xauga taalluqli axborot maxfiylikni saqlash choralari ko'rilgan sanadan boshlab	Muddatsiz (maxfiy saqlash muddatiga qarab)	

⁸ F.A.G'ulomova Buxgalteriya hisobi bo'yicha mustaqil o'rganish uchun qo'llanma "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" 2009yil. 37-bet.

1.2.Nomoddiy aktivlar hisobi mavzusida dars o'tishda huquqiy me'yorlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar va rasmiy ma'lumotlar bilan ishlash.

Iqtisodiy fanlarda darsni tashkil etish o'quv jarayoniga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish kerakligi talabini keltirib chiqaradi, chunki iqtisodiy fanlar bevosita amaliyotda mavjud iqtisodiy sohaning nazariy bilimlari majmuasidir. Shu sababli ta'lim beruvchi mavzuni qay tarzda o'tishi, uning natijalari va kutiladigan savollar haqida bosh qotirishi shart. Masalan, buxgalteriya hisobi fani bo'yicha dars o'tayotganda mavzuning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib u yetarli bilim doirasiga ega bo'lishi hamda auditoriyada paydo bo'ladigan muammoli vaziyat, ya'ni kutilmagan savollarga javob bera olishi uchun qurollanishi zarur.

Xususan "Nomoddiy aktivlar hisobi" mavzusida dars o'tish chog'da pedagog quyidagi bilimlar sohasi ma'lumotlariga ega bo'lishi kerak:

- Mavzuni o'rganishda davlat vakolatli organlari tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotda mavjud huquqiy me'yorlar;
- Mavzuni to'la ochib berish uchun qulay bo'lgan, malakali mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan hamda tegishli tashkilot tomonidan tasdiqlangan o'quv-uslubiy adabiyotlar;
- Mavzuga aloqador rasmiy ma'lumotlar va boshqa axborot manbalari.

Biz mavzuni o'rganish borasida huquqiy - me'yorlar haqida gapirganda, avvalombor, quyidagilarga alohida e'tibor qaratishimiz zarur:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo'lib, 6 bo'lim 26 bob 128 moddadan iboratdir. U bizning bosh qomusiy qonunimiz bo'lib, barcha sohadagi faoliyatimizni tartibga solib turadi, imkoniyatlar yaratib beradi, huquq va majburiyatlarimizni belgilab turadi, xususan **41-moddasida** "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir." deyilsa, **42-moddasida** esa, "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod-erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy

va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.”⁹ deya bilim olish huquqimiz kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni – bu qonun mustaqillik yillarida ta’lim tizimiga islohotlarni joriy qilishning bosh qonuni hisoblanib, 1992-yil 2-iyunda ilk bor qabul qilingan, 1993-yil 7-mayda jahon andozalariga moslashtirish maqsadida o’zgartishlar kiritilgan va talablarga javob beradigan, o’tmish sarqitlaridan holi qonunu yangi tahrirda 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan bo’lib, 5 bo’lim 34 moddadan iborat. U ta’lim sohasidagi barcha munosabatlarni me’yoriy tartibga solib turuvchi huquqiy hujjat hisoblanadi. Qonunning 4-moddasi “Bilim olish huquqi” deb nomlanib, unda ta’lim jarayonidagi huquqlarimiz to’liq bayon qilingan.

Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi – dastur O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunining mantiqiy davomi sifatida 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan bo’lib, u ta’lim sohasini tubdan isloh qilish maqsadini amalga oshirish borasidagi amalga oshirilishi shart bo’lgan talay vazifalarni belgilash hamda belgilangan vazifalarni bajarish orqali malakali mutaxassislarni tayyorlab, yurt ravnaqini bundanda yuqoriroqqa ko’tarish uchun ishlab chiqilgan. U dars jarayonini qanday tashkil etilsa yuqori natijaga erishish borasidagi tavsiyalarni ham o’zida mujassamlashtiradi.

O’zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi Qonuni – 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan bo’lib, u 24 moddadan iborat bo’lib xo’ja;ik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshiriladigan muomalalar hisobini yuritish bo’yicha yagona va asosiy tayanch hujjat hisoblanadi. Qonunda hisob yuritishning maqsad va vazifalari, hisob yuritishni tashkiletishning qoidalari va prinsiplari, hisobning obykti va subykti, hisob yuritishda qo’llaniladigan hisob registrlari, korxona buxgalteriya hisobining tarkibiy qismlari haqida ma’lumot, ularning hisobini yuritish me’yori, moliyaviy hisobotni tuzish, rasmiylashtirish va tegishli muassalarga topshirish tartibi hamda muddatlari aniq yoritilgan.

⁹ O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 2010. 12-bet.

Buxgalteriya hisobi fanidan dars berayotgan o'qituvchi har qaysi mavzuning huquqiy asosi haqida gapirganda mazkur qonunga murojaat etadi.

“Nomoddiy aktivlar” nomli O'zbekiston Respublikasining 7-son Buxgalteriya hisobining Milliy Standarti – standart 2005-yil 25-martda Moliya Vazirligining 35-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va 1-aprelidan amaliyotga joriy etilgan. Mazkur standartga 2009-yil 14-fevralda Adliya Vazirligining 1485-1-son buyrug'iga asosan Moliya Vazirligi tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, standart “Nomoddiy aktivlar hisobi” mavzusidagi barcha me'yorlarni belgilab beradi. Standart 12 bob 72 moddadan iborat, unda nomoddiy aktivlar hisobiga oid atamalar, nomoddiy aktivlarni hisobga olish, eskirish hisoblash va hisobdan chiqarish tartibi, nomoddiy aktivlar hisobini yuritish tartibi haqida batafsil, to'liq ma'lumotlar mujassamdir. Shuni alohida aytish kerakki, nomoddiy aktivlar hisobi mavzusidagi har qanday bilim asoslari mazkur standart orqali shakllantiriladi, chunki standartda mavzuning xususiyatlari alohida bob misolida yoritib berilgan. Shuningdek, mavzuni o'rganish chog'ida 11- 19-son BHMSlarining ham ahamiyatini hisobga olish zarur. Chunki, nomoddiy aktivlar inventarizatsiyasi boshqa balans moddalari kabi 19-BHMSGa amalga oshiriladi.

Mavzuni to'la ochib berish uchun qulay bo'lgan, malakali mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan hamda tegishli tashkilot tomonidan tasdiqlangan o'quv-uslubiy adabiyotlar, bu o'rinda o'quv-uslubiy adabiyotlar tushunchasiga ta'rif bersam yanada tushunarliroq bo'ladi.

O'quv-uslubiy adabiyotlar – o'quv jarayoni(biror fan) uchun maxsus ishlab chiqilgan darslik, o'quv qo'llanmasi, ma'ruza matni yoki bo'lmasa fanni yoritishda turli zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanmalar to'plamidir¹⁰. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quv qo'llanmalaridan, shuningdek darslik va ma'ruza matnlaridan keng foydalaniladi, chunki o'quv jarayonini tashkil etishdagi eng muhim omil bu o'quv vositasi hisoblanadi. Darslik va ma'ruza matnlari esa eng muhim o'quv vositalaridandir.

¹⁰ Q. Ishmatov “Pedagogik texnologiya asoslari” ma'ruza matni Namangan 2013. 11-bet.

Shu o'rinda quyidagi darslik,o'quv qo'llanma va o'quv adabiyotlari hamda mustaqil o'rganish uchun qo'llanmalarni mukammal ya'ni "Nomoddiy aktivlar hisobi" mavzusini o'rganish uchun qulay adbiyotlar sifatida sanab o'tishimiz mumkin:

- ✓ "Buxgalteriya hisobi" A. Karimov, F. Islomov va A. Avloqulov. Tosh 2003yil.
- ✓ "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" darslik. B. Hoshimov. Toshkent "Yangi asr avlodi" 2004
- ✓ "Buxgalteriya hisobi" M. Umarova, O'. Eshboyev va K. Ahmadjonov Toshkent "O'AJBNT" Markazi-2004.
- ✓ E.Gadoyev va boshqalar. "Buxgalteriya hisobi" savollar va javoblar. Toshkent: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" 1996.
- ✓ F. G'ulomova "Buxgalteriya hisobi bo'yicha mustaqil o'rganish uchun qo'llanma" Toshkent 2005.
- ✓ Bobojonov O. va Jumaniyozov K. Moliyaviy hisob. Toshkent "Mehnat"2005.
- ✓ Astanakulov M. Buxgalteriya hisobi Toshkent "Mehnat" 1995.
- ✓ Sotvoldiyev A.S va boshqalar. Zamonaviy buxgalteriya hisobi "O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar Milliy Assotsiatsiyasi" Toshkent 2002.
- ✓ M. Umarova va boshqalar. Buxgalteriya hisobi Tosh. "Mehnat" 2004.
- ✓ A. Abdullayev va I. Qayumov Buxgalteriya hisobi II-nashr O'R "Minhoj" nashriyoti 2002.
- ✓ A. A. Abdullayev va boshqalar "Moliyaviy hisob" o'quv qo'llanma Toshkent 2005.
- ✓ X. Bakiyeva va N. Rizayev Buxgalteriya hisobio'quv qo'llanma T: "Iqtisod-Moliya"2007.
- ✓ I. Ochilov. J. Qurbonboyev Moliyaviy hisob o'quv qo'llanma T: "Iqtisod-Moliya"2007.
- ✓ B. Bolibekov. A. Musayev va B. Turabbayev Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish o'quv qo'llanma. Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2013.

Yuqorida sanab o'tilgan adabiyotlar so'nggi 10yil ichida yetishib chiqqan kadrlarda nazariy bilimlarni shakllanishida o'rni beqiyos bo'lib, aynan nomoddiy aktivlar hisobi juda aniq, qisqa hamda tushunish oson qilib bayon etilgan. Masalan A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan "Buxgalteriya hisobi" darsligi fikrimning asosidir. Shuningdek, TMI professor-o'qituvchilari B. Bolibekov. A. Musayev va B. Turabbayevlar tomonidan bugungi kun talablari asosida ishlab chiqilgan "Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish" nomli o'quv qo'llanmada XyuSlar amaliyotda qo'llayotgan hisob yuritish dasturlarida aynan **"Nomoddiy aktivlar"** bo'yicha quyidagi xo'jalik muomalalarini kompyuter texnologik dasturi yordamida amalga oshirilishining bayoni keltirilgan:

1. Nomoddiy aktivlar bo'yicha qoldiqlarni kiritish "Nomoddiy aktivlar bo'yicha qoldiqlarni kiritish" hujjati orqali amalga oshiriladi, unda quyidagilar keltiriladi:

- a) Hujjatlar soni;
- b) Hujjat sanasi;
- c) Tashkilot - ma'lumotnomalaridagi tashkilotlar nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;
- d) Schyot - qat'iy cheklangan ro'yxat ("Nomoddiy aktivlar" ma'lumotnomasid ro'yxata berilgan nomoddiy aktivlar guruhi);
- e) Hujjatga sharh.

Jadval qismida:

- a) Nomoddiy aktivlar kodi;
- b) Nomoddiy aktiv (tanlov "Nomoddiy aktivlar" ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- c) Saqlash joyi(tanlov "Saqlash joyi" ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- d) Tiklash qiymati;
- e) Hisoblangan amortizatsiya summasi;
- f) Qayta baholash summasi.

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- Hujjatning harakatlanishi.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi: ¹¹

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	summa	Izoh
Nomoddiy aktivlar schyoti	Saqlash joyi	0000	-	summa	Tiklash qiymati
0000	-	Amortizatsiyasi hisobini yuritish schyoti	Nomoddiy aktivlar saqlash joyi	summa	Hisoblangan amortizatsiya

Mazkur qo'llanmada nomoddiy aktivlarning BEM dasturida hisobdan chiqarilishi, amortizatsiya hisoblash, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirilishi, ularni qayta baholash hamda kelib tushishiga oid muomalarning elektron nazariyasi to'liq ifodalangan.

Shuningdek, o'qituvchi dars jarayonida o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ishlayotganda, mavzuga oid atamalar yuzasidan "glossariylar to'plami"ga murojaat qilishi, hamda masalalar ishlashda soha mutaxassislarini tomonidan yaratilgan "Masalalar to'plami"dan foydalanishi va testlar to'plami asosida ularning bilimi nazorat qilishi va baholashi mumkin.

Nomoddiy aktivlar hisobi mavzusi o'zining xususiyatidan kelib chiqib rasmiy ma'lumotlar bilan ishlashni ham talab etadi. **Rasmiy ma'lumotlar** tarkibiga mavzuga oid jurnal va gazetalarda nashr etilgan qonun va nizomlar, ularga kiritilgan o'zgartirishlarni kiritishimiz mumkin.

Mavzu bo'yicha dars jarayonini tashkil etishda ta'lim beruvchi qanday vositadan foydalanishni o'zi tanlaydi. Chunki u vositani tanlashda faoliyat davomida egallagan tajriba va mahoratiga tayanib ish ko'radi.

¹¹ B. Bolibekov va boshqalar Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish T: "Moliya-Iqtisod" 2013yil 19-bet.

II BOB. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA "NOMODDIY AKTIVLAR HISOB" MAVZUSIDA DARS O'TISHDA ULARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

2.1. Ta'lim texnologiyalari, ularning dars jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati.

Ta'lim texnologiyasi, uning mohiyati va dars jarayonidagi ahamiyati haqida fikr yuritish uchun avvalombor uning paydo bo'lishi, tarixiy rivojlanish jarayoni haqida ma'lumotga ega bo'lish zarur. Zero, buyuk o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy aytganidek: "Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlikdur"¹².

Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - "texnos" (techne) - san'at, hunar va "logos" (logos) - fan so'zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon - bu mehnat qurollari bilan mehnat obyektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchining o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba) larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarni intensiv shakllantirish jarayonidir.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, PT tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan ta'riflar soni pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko'pdir. Pedagogik nashrlarda "texnologiya" atamasining xilma-xil ko'rinishlarini uchratish mumkin: "o'qitish texnologiyasi", "o'quv jarayoni texnologiyasi", "ma'lumot texnologiyasi" va hokazo.

¹² "Barkamol avlod orzusi" Toshkent "Sharq" 1998. 27-bet.

Bu tushuncha XX asrda paydo bo'ldi va 1940-1950 yillarda "ta'lim texnologiyasi" tarzida qo'llanilib, mazmunan o'quv jarayonida audio-vizual texnika vositalaridan foydalanishni anglatgan. Atama dastlab AQSHda qo'llana boshladi. Keyinchalik "ta'lim texnologiyasi" o'rniga "dasturlashtirilgan ta'lim" atamasidan foydalanish keng yoyildi. So'ngra pedagogik texnologiya-loyihalashtirilgan ta'lim va aniq maqsadga qaratilgan o'quv jarayonini ifoda eta boshladi. O'tgan asrning 80-yillarida pedagogik texnologiya kompyuterli va axborot texnologiyalari bilan sinonim tarzda ishlatila boshladi.

Keyingi o'n yilliklarda pedagog olimlar va o'qituvchilar diqqatini jalb qilgan masalalardan biri pedagogik texnologiya hisoblanadi. Bu mavzuning ilmiy ishlarda, hisobotlarda, maxsus davriy nashrlarda qizg'in o'rganilayotganligi, bahs-munozaraga sababchi bo'layotganligi ham ta'lim-tarbiyada uning o'rni naqadar muhimligiga guvohlik beradi. Mavjud materiallarni jamlash, uning nazariy va amaliy jihatlarini O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida tahlil qilish, pirovard natijada, qator konseptual texnologiyaning empirik asosini yaratishga harakat qilish, shuningdek, uni ilmiy bilimlar doirasiga o'tkazish kabi ishlar ham jadal davom ettirilmoqda.

Avvalo, nega bugunga kelib pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik kuchaydi, degan savol tug'iladi. Aytish mumkinki, rivojlanayotgan davlatlarda, odatda, birinchi navbatda, pedagogik texnologiyaga ta'lim sohasidagi siyosatning bosh vazifasi sifatida qarab kelingan. Bunday yondashish YUNESKO tomonidan ham ma'qullandi va 1972 yilda «Ta'limni rivojlantirish masalalari» bo'yicha Xalqaro Komissiya tashkil topdi. Bu komissiya zamonaviy texnologiya-ta'limni modernizatsiyalashda harakatlantiruvchi kuchdir, deb baholadi.

Muhimi shundaki, Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan milliy dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari har jihatdan ilmiy asoslab berildi va uning ikkinchi

bosqichida «o'quv-tarbiyaviy jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash»¹³ muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Xo'sh pedagogik texnologiya nima? Uni amaliyotga qanday joriy qilish mumkin?

Pedagogik texnologiyaga ta'rifni istalgancha sharhlash mumkin, masalan: pedagogik texnologiya-bu o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni, deb ta'riflasak xato bo'lmaydi.

Qator yillardan beri, pedagogik texnologiyaga o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha yangicha talqin etila boshlandi. Texnologiya deganda, sub'yekt tomonidan ob'yektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'yektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'yektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hoidisani pedagogik texnologiya, desa bo'ladi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy aloqalar o'rnatish boshladilar. Natijada yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Shular qatorida, jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib, pedagogik jamoatchiligimiz fikrini chulg'ab oldi.

Oxirgi yillarda, Rossiya bilan O'zbekistonda pedagogik texnologiyani o'rganish yo'lida ancha ishlar qilindi. Shu jumladan, O'zbekiston olimlari bilan

¹³ I. Rahimov va boshqalar "Mutaxassislikka kirish" muammoli ma'ruzalar to'plami. NMPI. Namangan 2005. 9-bet.

hamdo'stlik davlatlari o'rtasida ham pedagogik texnologiyalarning loyihalarini tuzish bo'yicha ancha ishlar qilindi.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirishning zarurligini bunday mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P. Bospalkoning fikricha, «Pedagogik texnologiya-bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir»¹⁴.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning birinchi va ikkinchi bosqichlari vazifalari muvaffaqiyatli hal qilinib, uchinchi bosqichdagi o'zgarishlar davom etmoqda. Bu bosqichda o'quv-tarbiya ishlarini butunlay yangi asosda tashkil qilish, yuqori sifat ko'rsatkichiga erishish talab qilinadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yuksak umumiy madaniyatga va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Ushbu pedagogik g'oya ta'lim tizimi oldiga:

❖ ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash va kadrlar tayyorlash bo'yicha islohotlar izchilligini ta'minlash;

¹⁴ Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar – T.:Iste'dod, 2008. 122-bet.

❖ kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy--iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaniing zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

❖ ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy qilishni hal etish vazifalarini ko'ndalang qilib qo'ydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar(PT)ga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish zarurati uqtirilgan.

Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.Bular orasida J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov, N.S.Sayidahmedov, R.H.Jo'rayev, Q.Y.Yo'ldoshev kabi ta'lim-tarbiya jarayonlari fidoiylarining nomlari alohida hurmat va e'tiborga molikdir.

Nega bugungi kunga kelib, pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik darajada kuchaydi, degan mulohaza tug'ilishi tabiiy. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni yetishtirib kelgan pedagogikaning o'ziga xos uslublari mavjud. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo'ldan bormoqda, ammo mustaqillik va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l kutilgan samara bilan xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma'lum sabablar mavjud, ya'ni;

1. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi;

2. Fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimi hajmining tobora ko'payib borayotganligi;

3. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta'limga tatbiq etish, ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish, o'quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi(AT) va texnik vositalar(TV)dan foydalanish kerakligi;

4. Talaba va o'qituvchi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qituvchi ta'lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta'lim usullari, metodlari va vositalarini yaxshi egallagan bo'lishi, talabaning qiziqish va intiluvchanligini to'g'ri yo'lga yo'naltira olishi lozimligi;

5. O'qituvchi ta'lim jarayonini yuqori darajada, samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta'lim natijasini oldindan qayd etishi, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta'lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishishi kerakligi;

6. O'quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilgan bo'lishligi;

7. Ta'lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va ob'yektiv baholash, talabalarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi;

8. O'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'yektiv borliqqa majmuiy yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi kabi muammolardadir.

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbir hisoblanadi.

Bugungi kunda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan biri ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda ta'lim oluvchilarni o'qitishni jadallashtirish sanaladi.

Respublikamizda ta'lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga doir keng ko'lamda ish olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to'plandi. Ta'lim jarayoniga pedagogik va

axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko'rsatmoqda.

«Pedagogik texnologiya» so'zlar birikmasining asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta'limda esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi. Bugungi kunda pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo'l-aniiq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik muloqot texnologiyasida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchi-talabalar bilan muloqoti.

Muloqotning vazifalari:

- shaxsni tanish, axborot almashish;
- kelgusi pedagogik muloqotni modellashtirish va tahlil etish;
- muloqotdan olinadigan tasavvurlar;
- muloqot yuzasidan fikrlash va fikr almashish;
- pedagogik muloqotni tashkil etishning texnikasi va texnologiyasi ;
- ishga ijodiy yondashish va boshqalar.

Pedagogik talab texnologiyasi.

- «pedagogik talab» tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari;
- xulq-atvor va ijtimoiy-madaniy qoidalarining namoyon bo'lishi;
- o'quvchi-talabaga bo'lgan hurmat va talab;
- pedagogik talabning psixologik tamoyillari va mezonlari.

2. Baholash texnologiyasi, pedagogik baho va uni mezonlash.

✓ xatti-harakatlardan olingan taassurot, voqeyelikni, ob'yekt va sub'yektni qabul qilish;

✓ baho berish usullarini tanlash, o'qituvchi(pedagog)ning o'z imkoniyatini tahlil etishi va ta'sir samaradorligini oshirishi);

✓ pedagogik baholash texnologiyasi.

3. Axborotning ta'sir ko'rsatish texnologiyasi.

➤ nutqiy-axborot berish, «ratsional axborot berish» tushunchalari, demonstratsion va ko'rgazmali vositalar-axborot olish vositalaridan biri sifatida;

➤ nutqiy ta'sir etish, suhbat, hamkorlik, tezis, argument, ko'rgazmalar va obrazlar;

➤ nutqiy ta'sir etish texnologiyasi;

➤ demonstratsion va ko'rgazmali vositalar, etik, iqtisodiy, estetik, gigiyenik materiallar;

➤ qabul qilishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini demonstratsiya qilish texnologiyasi.

4. Pedagogik vaziyatlarni yaratish va uni yechish texnologiyasi.

❖ pedagogik konflikt tushunchasi - konflikt pedagogik texnologiya elementi sifatida, konflikt sub'yektlari orasidagi qarama-qarshiliklar, bo'sh va mazmunli konflikt;

❖ holat tahlili (voqyeani aniqlash);

❖ konflikt;

❖ konfliktning xilma-xilligi (norozilik, qarshi chiqish);

❖ konfliktni yechish shakllari (yumor, hazil, mutoiba).

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning qo'shimcha elementlari:

1. Psixologik muhit yaratish texnologiyasi.

2. Guruh faoliyatini tashkil etish texnologiyasi.

3. Muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz holatlarni tashkil etish texnologiyasi.

4. O'quvchining xatti-harakatiga pedagogik reaksiya qilish texnologiyasi.

5. Xulqi va odobi yomon o'quvchi-talabalar bilan ishlash texnologiyasi.

6. Etik himoya texnologiyasi.

7. Muammoli vaziyatlar yaratish texnologiyasi.


8. Pedagogik vosita va improvizatsiya texnologiyasi.

Umuman, pedagogik texnologiya o'quv jarayoni va uning ishtirokchilari bilan bog'liq barcha maqsadli sa'y-harakatlar yig'indisini anglatishi lozim. Hozirgi kunda uning mavjud ta'riflari juda ko'p va xilma-xildir. Bu ta'riflar ichida mutaxassislar tomonidan eng maqbul deya e'tirof etilayotgani bu YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif bo'lib, u “ Pedagogik texnologiya - ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir”¹⁵.

“Texnologiya” tushunchasi keng ma'noda insonning barcha antropogen faoliyati natijasida mahsulot yaratilishi jarayonlarini qamrab oladi. Texnika va texnologiya, sanoat va transport, mashinasozlik va aviatsiya, kimyo va metallurgiya, tibbiyot va farmatsevtika, qishloq xo'jaligi va chorvachilik, umuman, yaratuvchanlik va ijodkorlik mehnati va metod, usul, vosita hamda jarayonlar majmuasini ifodalash uchun shu kungacha cheklanmagan miqyosda foydalanib kelinayotgan ushbu atamaning mazmun va mohiyati keng ko'lamga ega bo'lib qoldi. Pedagogik jarayonlar uchun tatbiq qilinuvchi texnologiyaning an'anaviy va noan'anaviy, tarixiy, klassik, yangi va zamonaviy turlari farq qilinmoqda. Asosiy maqsad - shaxsning ta'lim va tarbiyasi hamda uning aqlan va jismonan rivojlanishi bilan bog'liq kasbiy faoliyat ekanligini nazarda tutsak, qanday nomlanishidan qat'iy nazar, pedagogik texnologiya komil inson tushunchasiga mazmunan singib ketishi lozim.

Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llanilishiga qarab quyidagi chizma orqali ifodalashimiz mumkin, bunda umumiy pedagogic maqsadlar, xususiy maqsadlar, topshiriqlar, o'quv jarayoni va yakuniy baholash o'z aksini topgan.

¹⁵ J.Yo'ldoshev va S. Hasanov “Pedagogik texnologiyalar” o'quv qo'llanma T: “Iqtisod-Moliya” 2009.



1.2-chizma. Pedagogik texnologiyani blok-sxemasini.¹⁶

2.2. Nomoddiy aktivlar hisobi mavzusini o'rganishda samarali ta'lim texnologiyalarini tanlash mezonlari.

Hozirgi globallashtirish jarayoni hukm surayotgan davrda, asosiy maqsad tayyor bilibni o'zlashtirish emas, balki talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil tanlash hamda erkin qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil qilish obyektiv zaruriyatni keltirib chiqardi, bu maqsad sifatida qaralganda uning ro'yobi ko'p jihatdan samarali ta'lim metodlarini tanlashga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Har qanday fanni o'rganishda turli metodlardan foydalaniladi, buning sababi:

Birinchidan, dars o'tishda turli uslublarni qo'llash uni qiziqarli bo'lishiga olib keladi, talabalarning diqqati o'tilayotgan darsni o'zlashtirishga qaratiladi. Bir

¹⁶ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

xil metodda dars o‘tilaverishi talabalarni zeriktiradi. Psixologlar tadqiqotlariga ko‘ra har qanday mohir o‘qituvchi ham bir xil metodni qo‘llab dars berar ekan, aytaylik, ma’ruza o‘qir ekan, talabalar dastlab 20 minut, so‘ngra darsni tugashidan oldin 20 minut ma’ruzani diqqat bilan eshitar, kolgan paytda xayolga berilib ketar ekan.

Ikkinchidan, talabalarning darsni o‘zlashtirish, bilimni qabul qilish qobiliyatlari har xil bo‘lib, turli uslublarni qo‘llashgina o‘tilayotgan mavzuni talabalar tomonidan nisbatan to‘liq o‘zlashtirishga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bilimni o‘zlashtirish jarayonida mavzuni tezroq anglashga bir xil talabalarga bir uslub yordam bersa, ikkinchilariga boshqa uslub yordam beradi.

G‘arb olimlari tomonidan chop etilgan uslubiy adabiyotlarda bilim berish uslubiga ta’sir etuvchi parametrlarga:

- 1) har bir talabanig individual xususiyatlari;
- 2) axborotni qayta tiklash qobiliyati;

3) talabalarni bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi, hamkorlik qilish xislatlarini kiritishadi.

Psixologlar odamlarni introvert va ekstravert guruhlariga bo‘lishadi:

Introvert tipidagi talabalar ko‘proq individual qatnashish ustun dars o‘tish uslublarini yoqtirishadi.


Ekstravert guruhidagi talabalar o‘qitishning faol turlarini, boshqalar bilan hamkorlikda bajariladigan uslublarni yoqtirishadi.

Insonda olgan axborotni qayta ishlash qobiliyati ham turlicha. Talabalar bilim olish, olgan axborotlarini yodda saqlash, tushunish va qo‘llashda ham bir-biridan farq qiladilar. Ba’zi talabalar uchun verbal (so‘zda ifodalangan) axborot, masalan, ma’ruza eshitish yoki radio orqali tinglash yetarli. Boshqalari uchun esa vizual (ko‘rish) axboroti muhim. Ular ko‘rgazmali qurollar: jadval, sxema, grafik. diagramma kabilar orqali mavzuning mazmuniga tez tushunishadi. Uchinchi guruh talabalar uchun kinestetik (o‘zi qatnashuvchi) axborot foydali. Ular o‘qitishning aktiv uslublari, modellashtirilgan o‘yinlarda rol o‘ynash orqali axborotni yaxshi

o'zlashtiradilar.

Talabalar ko'p narsalarni bir birlaridan o'rganishadi. Shuning uchun talabalarni bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, hamkorlik qilishga asoslangan dars o'tish metodlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, ba'zilar mustaqil, birinchi bo'lishga intilishi bilan ajralib turadi. Ular alohida o'qishni ma'qul ko'radi. Ularga debat, munozara olib borish, konkurslarda qatnashish yoqadi. Boshqalar yolg'izlikdan ko'ra hamkorlikda o'qishga moyil. Ular uchun kooperatsiyalashgan o'qitish uslublarini qo'llagan ma'qul. Ba'zi talabalar aniq faktlar, ma'lumotlarni tezroq qabul qiladi. Boshqalari nazariy matematik modellarni yoqtiradi. Ba'zi talabalar ko'rgazmali rasmlar, diagrammalar orqali, boshqalari munozara qilganda, uchinchilari esa amaliyotda o'zi bajarishda qatnashsa yaxshiroq, puxtarok o'rganadi

Pedagog - olimlarning tadqiqotlari bo'yicha o'qitish jarayonida berilgan axborotni eslab qolish qo'llanilgan metodlarga ko'ra quyidagicha ko'rinishda aks etar ekan (G. Mayerga muvofiq, 72 soatdan (uch sutkadan) o'tganda)



1-diagramma. O'qitish «piramida»si¹⁷

Axborotni eslab qolish

¹⁷ «Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari» mavzuidagi seminar-trening materiallari. Trenerlar uchun qo'llanma. Toshkent, 2002, 67-bet.

- Ma'ruza, doklad. Eshitganimizning 5 foizi;
- O'qish. O'qiganimizning 10 foizi;
- Video, rasm, ko'rgazmalarni ko'rish. Ko'rganimizning 20 foizi;
- Tajribani namoyish qilish. Ko'rgan va eshitganimizning 30 foizi;
- Munozara. Birga muhokama qilganimizning 40%;
- Mashq. O'qigan, yozgan, gapirganlarimizning 50%;
- Ishbilarmon o'yini, loyiha usuli. Mustaqil o'qiganlarimizning, tahlil qilganlarimizning, muhokama, himoya va yozganlarimizning, namoyish qilganlarimizning 75 foizi;
- Boshqalarni o'qitish. Boshqalarni o'qitgan narsalarimizni 90 foizi.

Uchinchi dan, dars o'tish metodlari talabalarni fikrlash doirasini shakllantirishga yordam beradi.

Shuning uchun ham barcha pedagoglar talabalarga bilim berishning eng samarali yo'li, dars o'tishga turli metodlarni qo'llash zarur degan fikr tarafdori bo'lib, aynan qaysi metod qaysi kategoriyadagi talabalar uchun qo'llanilishi ma'qulligi bo'yicha esa yagona qolip yo'q, Jahon pedagogikasi tajribasi shuni ko'rsatadiki, **tahliliy fikr** yuritadigan talabalardangina muvaffaqiyat bilan ishlovchi biznesmenlar, siyosiy liderlar(sardorlar), fan arboblari yetishib chiqadi.

Ta'lim beruvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha o'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida avvalombor uning rejasini tuzarkan, albatta, uni qanday metod asosida o'tkazish haqida o'ylaydi.

Yuzaki qaraganda, dars o'tish metodini tanlash murakkab emas. Ularni qanday qo'llash uchun o'qituvchida tajriba bor. Ulardan birortasini tanlasa bo'ldi, deya fikr yuritamiz. Lekin dars jarayonini tashkil etishga ko'plab omillar ta'sir qiladi.

Pedagogika - psixologiya bo'yicha mutaxassislarning fikriga ko'ra, dars o'tish metolarini tanlashga quyidagilar ta'sir etadi:

- O'qitilayotgan guruhning darsga tayyorgarlik darajasi;
- O'rganiladigan predmet;

- Darsda o'tiladigan mavzu;
- O'tiladigan mavzuning mazmuni;
- Dars o'tishda qo'llash mumkin bo'lgan texnik vositalar mavjudligi va boshqalar.

Bundan tashqari real jarayonga kutilmagan holatlar, sabablar ta'sir qilishi mumkinligi. Ularni avvaldan ko'rib, hisobga olib bo'lmaydi.

Asosiysi, o'qituvchi dars o'tishda pedagogik texnologiya, metodlarni tanlar ekan, o'quvchi, talabalarni hamkorlikda ishlashini ta'minlash, mustaqil fikr yuritishga yo'naltirishni ta'minlashiga, mavzuning mazmunini puxta o'zlashtirishga yordam berishi zarur.

Shuningdek yana shu sohada faoliyat yuritgan qator olimlar fikricha, ta'lim metodini tanlash yoki aniqlashning oltita shartini ko'rsatish mumkin, bular:

1. O'qitishning qonuniyatlari va tamoyillari;
2. Fanning mazmuni va predmetini o'rganish metodlari;
3. O'qitishning maqsad va vazifalari;
4. Ta'lim oluvchilarning o'quv imkoniyatlari (yoshi, tayyorgarlik darajasi, bilimi, qiziqishi, ishlash qobiliyati va boshqalar);
5. Tashqi sharoitlar;
6. O'qituvchilarning imkoniyatlari.

Turli omillarning dars o'tish metodini tanlash jarayonidagi o'rinlarini ierarxik tarzda joylashtiradigan bo'lsak, ko'plab mutaxassislar fikricha:

❖ Ta'limning maqsadi (aynan dars o'tish jarayonida biz nimaga erishishimiz lozimligi ifodalanadi);

❖ Ta'limning motivatsiya darajasi (Subyektiv nuqtai nazardan esa motivatsiya birinchi o'rinda turadi).

Motivatsiya – bu biologik jihatdan insonning irsiy va to'plangan tajribasi asosida individual va guruh ravishda ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan, undaydigan tuyg'u. o'quv jarayonida o'quvchiga ham huddi anashu tuyg'u turtki

bo'ladi. Shu sababli pedagog dars dars o'tish metodini tanlayotganda albatta o'quvchi – talabalarning motivatsiya darajasiga e'tibor berishi kerak.

Dars o'tish metodini tanlaganda ta'lim qonuniyatlari va tamoyillarining ahamiyatini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

O'rta asrlarda olimlar bilishning asosiy qonuniyatlariga faqat o'qitishning emas, balki axloqiy tarbiyalashning ham yetakchi asosi sifatida qaraganlar.

Har bir fanni o'rganishda matodlarni tanlash ta'lim qonuniyatlari va didaktik prinsiplardan kelib chiqqan holdagogik qonuniyatlar quyidagilarda o'z aksini topadi:

- ❖ Ta'lim jarayoni jamiyat taraqqiyotini aks ettiradi;
- ❖ Ta'lim va tarbiya jarayoni hamda o'quvchi – talabalar tafakkurining rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog'langan;
- ❖ O'qitish va o'rganish jarayonlari yaxlit ta'lim jarayoni, muayyan ta'lim mazmuni bilan bir-birini taqazo etadi;
- ❖ O'quvchi – talabani biror-bir faoliyatga o'rgatish, uni shu faoliyatga-maqсадga jalb etish orqali amalga oshiriladi;
- ❖ O'qitish maqsadi va o'quv yurti ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va shakllari o'rtasidagi qonuniy bog'liqlik;
- ❖ O'quv jarayoni o'quvchi-talaba maqsadining o'qituvchi maqsadiga muvofiq bo'lishi tufayli amalga oshadi. Bunda o'qituvchi faoliyati o'zlashtirish lozim bo'lgan mazmuniga mos bo'lishi shart;
- ❖ Ta'lim mazmunini o'zlashtirish sur'ati va puxtaligi, o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan o'quv faoliyati, o'quvchi, talabalarni bilishga bo'lganqiziqishini ta'minlash;
- ❖ Ularning har tomonlama rivojlanishi, kamol topishi uchun o'zlashtirishi mumkin bo'lgan o'quv jarayoniga qay darajada jalb qilinishi;
- ❖ O'zlashtirilgan o'quv materiali mazmuni puxtaligini ta'minlashda mavzuni to'liq yoki qisman takrorlash.

O'quv jarayonida talabalar bilim qonuniyatlaridan qanday foydalanishlari didaktik prinsiplarga amal qilish bilan bog'liqdir.

Har bir mavzu bo'yicha dars o'tish metodini tanlayotganimizda mavzuni o'rganishga qo'yilgan talablar va fanning mazmuniga alohida ahamiyat berish lozim. Bir mavzuni o'zlashtirishda samarali natija bergan metod boshqa mavzu bo'yicha talabalarning chuqur o'zlashtirishlari uchun keraklicha yordam bermasligi mumkin. Shu sababli ham dars o'tish metodlarini tanlashda, albatta, mavzuning hususiyatlariga alohida diqqat qaratish zarur.

Fanni o'rganishda o'quv materialining murakkabligi va miqdori ham muhim ahamiyatga ega. Demak, metod tanlashda fanning bu jihatlarini ham hisobga olish zarur. Masalan, oily o'quv yurtlarida iqtisodiy nazariya, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida iqtisodiy bilim asoslari fanini o'rganishda abstrakt tafakkur nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, soliq kabi fanlarda amaliy metodlar fanni o'rganishga katta yordam beradi. Demak metodlarni mos ravishda tanlash lozim.

Ta'lim jarayonida qanday metod tanlash, o'rganilayotgan mavzuga, uning hususiyatlariga aloqadordir. Masalan, buxgalteriya hisobi fanida asosiy e'tibor hujjatlashtirishga qaratiladi. Bir mavzuda munozara metodi orqali chuqur o'zlashtirilsa, ikkinchisida masala-mashq metodi ko'proq qo'l keladi.

Metod tanlashda o'quvchi talabalarning o'rtacha bilim darajasi ham asosiy ta'sir etuvchi omillardandir.

Guruh talabalarining bilim darajasi yuqori bo'lsa, mos ravishda ijodiy izlanishga undaydigan metodlarni qo'llash zarur. Bu ularni yanada ko'proq o'qishga-izlanishga undaydi. Bilim darajasi past guruhlarda fan mazmunini o'zlashtirishga yordamlashadigan metodlarni tanlagan ma'qul.

Dars o'tish qiyin bo'lgan guruh talabalar bilimi darajasi bir biridan keskin farq qiladigan guruh hisoblanadi. Shuning uchun bunday guruhlarda birgalikda ishlashni ta'minlaydigan metodlarni tanlash zarur.

O'qituvchi dars o'tish metodini tanlar ekan, talabalar faolligi va qiziqishini ham hisobga olish zarur. Talabalar faolligi sust va qiziqishi past guruhlarda ularni

qiziqtiruvchi, faolligini oshiruvchi metodlarni tanlashga to'g'ri keladi. Bunda modellashtiruvchi o'yin, turli qiziqarli mashqlar, konkurslar o'tkazish, talabalarga yakka tartibda topshiriqlar berish, aytaylik, nomoddiy aktivlarning korxona faoliyatidagi ahamiyati haqidagi fikrlar bilan kechadi.

Talabalar faolligi yuqori guruhlarda ularni o'z ustida mustaqil ishlashga undovchi, erishgan darajada qotib qolmay yanada ko'proq o'qishga chorlovchi metodlarni tanlagan ma'qul.

Dars o'tish metodini tanlaganda dars berish muddatini ham hisobga olish lozim. ma'lumki, vaqt inson uchun eng tanqis resurs.

Shuning uchun talabalarni doimo vaqtdan unumli foYdalanishga o'rgatish lozim. mavzuni o'rganishga qancha vaqt berilgani, shundan har bir rejaga qanchadan vaqt to'g'ri kelishiga qarab, darsni rejalashtirish va o'tkazish zarur.

Hech bir shubhasiz, metod tanlashda moddiy-texnik baza, o'qitishning tashkiliy shart-sharoitlari ham muhim o'ringa ega. Shu sababli o'qituvchi, har bir mavzuga ajratilgan vaqtdan kelib chiqib, maqsadga erishish uchun o'rganilishi zarur asosiy savollarga ko'proq vaqt ajratishi, shunga muvofiq dars o'tish metodini tanlashi hamda o'tkazishni rejalashtirishi lozim.

Dars o'tish metodini tanlashga ta'sir etadigan yana bir muhim omil bu – dars shakli va tarkibi hisoblanadi. Albatta, nazariy bdarsda qo'llanilib yuqori samara bergan metod amaliy mashg'ulotda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Metod tanlashda guruh talabalari sonini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur, chunki kichik guruhlarda osongina qo'llanilib maqsadga erishish uchun talay sharoitni yaratib beruvchi metodlarni katta guruhlarda qo'llashning iloji bo'lmasligi mumkin.

Metodni tanlashda o'qituvchi va o'quvchi o'rtyasida o'quv jarayonida shakllanadigan munosabatlarda o'zaro hamkorlikka diqqat qaratilsa, boshqalarida avtaritarlik ustunlik qiladi. Metod tanlashda eng muhim omil bu – o'qituvchining darsga tayyorgarlik darajasidir. Chunki qaysi metodni qo'llash, qanday qilib dars o'tish, darsning mazmuni talabalar ongiga yetkazish o'qituvchiga: uning bilimi, salohiyati, kasbiy ko'nikmasi va mahoratiga bog'liq.

Yuzaki qaraganda, dars o'tish metodini tanlash murakkab emas. Ularni qanday qo'llash uchun o'qituvchida tajriba bor. Ulardan birortyasini tanlasa bo'ldi, deya fikr yuritamiz. Lekin ko'rib o'tganimizdek, dars jarayonini tashkil etishga ko'plab omillar ta'sir qiladi.

Bundan tashqarireal jarayonga kutilmagan holatlar, sabablar ta'sir qilishi mumkinki, uni avvaldan ko'rib hisobga olib bo'lmaydi. **Dars o'tishda samarali metodlarni qo'llash deganda, mavjud turlicha metodlarni orasidan qabul qilingan mezonlar bo'yicha mavjud sharoitda eng yuqori natijaga erishiladigan metodlarni qo'llash tushuniladi.** Ular har bir fan, mavzu, savol, guruh uchun turlicha bo'lishi mumkin.

Dars o'tish metodlarini tanlashda yangi mavzuni, materialni o'rganilishi, uni mustahkamlash, mavzuni umumlashtirish va dars jarayoni reja-bosqichlari ham katta rol o'ynaydi. Chunki rejada bayon etilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar doirasi ham metodni tanlash uchun ta'sir etadigan asosiy omillar jumlasidandir.

Ta'lim texnologiyalaridan foydalanishdagi birinchi qadam bu-mashg'ulotning texnologik xaritasini tuzishdir.*(1-ilova)*

III BOB. NOMODDIY AKTIVLAR HISOBİ MAVZUSI BO'YICHA TA'LİM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING ISTIQBOLLARI.

3.1. Nomoddiy aktivlar hisobi mavzusi bo'yicha darsni "mujassamlashgan savollar (skarabey)" texnologiyasi orqali tashkil etish.

Har bir ish ma'lum tajriba asosida qiziqish vas hart-sharoitni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Mazkur BMIda kamina "Nomoddiy aktivlar hisobi" mavzusini "Mujassamlashgan savollar" yoki "Skarabey" texnologiyasi orqali tashkil etishni tanlashimning asosiy sababi, 2013-yil "Kasbiy ta'lim" yo'nalishi bo'yicha Respublika fan olimpiadasida ishtirok etganimda ushbu texnologiyaga duch kelgandim va ushbu texnologiya ta'lim jarayonini tashkil etishda eng samarali texnologiyalar guruhiga kiritilganligidan xabardor bo'lgandim. Malakaviy amaliyot davrida o'z tajribamda ham qo'llab ko'rib bunga yana bir bor ishonch hosil qildim. Mazkur texnologiyani xorij olimlari kashf etgan bo'lib, uning bosqichma-bosqich amalga oshishini huddi skarabey qo'ng'izining maqsad sari tinmay harakat qilishiga qiyoslashadi va "Skarabey" deya nomlashadi. Uning ikkinchi, ya'ni "Mujassamlashgan savollar" deya nomlanishi ko'p yillar pedagogika sohasida faoliyat yuritgan Namangan Muhandislik Pedagogika Instituti marhum professori o'qituvchisi Q. Ishmatovning ilmiy faoliyati bilan bog'liq. U kishi texnologiyani o'rganish chog'ida unga o'zbekona nom qo'yganlar. Texnologiya ikki nomda ham bir xil ahamiyat kasb etadi, uni qo'llash ta'lim jarayonini loyihalashtiruvchining bilimi, ko'nikma va malakasi hamda pedagogik mahoratiga bog'liq. Metod haqida adabiyotlarga murojaat qilganimda quyidagi axborotlarga ega bo'ldim.

«Skarabey» interfaol texnologiya bo'lib, u o'quvchi - talabalarda fikriy bog'liqlikni kuchaytiradi, mantiq va xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Talabalarda muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni

aniqlash imkonini beradi hamda turli g'oyalarni ifodalash va ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarabey» texnologiyasi o'quvchi-talabalar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U talabalar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega. «Skarabey» texnologiyasi alohida ishlarda, kichik guruhlarda va mashg'ulotlar o'tish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

«Skarabey» texnologiyasidan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

- ❖ boshida-o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida «Aqliy xujum» metodi yordamida tezkor tartibda savol-javob o'tkaziladi va faol qatnashgan talabalar baholanadi;

- ❖ mavzuni o'rganish jarayonida-uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini o'rganish tartibi belgilanadi;

- ❖ ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash;


- ❖ mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;

- ❖ oxirida-olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin. Masalan, Nomoddiy aktivlar mavzusini o'rganishda quyidagi chizmadan foydalanishimiz mumkin:

Ta'limdan tashqari «Skarabey» texnologiyasi tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- ✓ o'zgalar fikriga hurmat;
- ✓ jamoa bilan ishlash mahorati;
- ✓ imkoniyatni ko'rsatish ehtiyoji;
- ✓ xushmuomalalik;
- ✓ ishga ijodiy yondashish;



2-chizma. Nomoddiy aktivlarning tarkibi.¹⁸

- ✓ o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- ✓ «men»ligini ifodalashga imkon beradi;
- ✓ o‘z faoliyati natijalariga mas’ullik va qiziqish uyg‘otadi.

Mazkur texnologiya asosida mavzuni o‘rganish bo‘yicha namunaviy ishlanma.

Mavzuni o‘rganish bo‘yicha mujjassamlashgan savollar: (Har bir savol uchun va kutiladigan javoblar uchun vaqt taqsimoti hisobga olinadi, masalan 1-savol uchun 5 daqiqa ajratilsa, 2-savolga uning xususiyatidan kelib chiqib ko‘proq yoki kamroq vaqt ajratilishi mumkin.)

¹⁸ Ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

1. Nomoddiy aktivlar deb nimaga aytiladi?
2. Nomoddiy aktivlar qanday turlari mavjud?
3. Nomoddiy aktivlar qanday baholarda baholanadi?
4. Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida nomoddiy aktivlarning ahamiyati va shu kabi savollarni qo`yish mumkin.

Kutiladigan javoblar:

1.1. Moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo`lmagan, xo`jalik yurituvchi subyekt tomonidan xo`jalik faoliyatida foydalanish maqsadida nazorat qilinadigan, shuningdek uzoq vaqt ishlatish uchun mo`ljallangan mol mulk obektlari nomoddiy obyektlardir;

1.2. Moddiy ashyoviy ko`rinishga ega bo`lmagan, XYuS foydalanadigan va boshqaradigan hamda uzoq vaqt foydalanish uchun mo`ljallangan aktivlardir.

2.1. Patent, litsenziya, nau-xau, franshiza, dasturiy taminot, mualliflik xuquqlari, tashkiliy xarajatlar va boshqa nomoddiy aktivlar;

2.2. XYuS buxgalteriya balansining aktiv qismi 0400-nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar satrlarida keltirilgan uzoq muddatli aktivlar.

3.1. Nomoddiy aktivlar 7-BHMS ga asosan baholanadi;

3.2. Nomoddiy aktivlar dastlabki, sotish, tugatish, qoldiq hamda o`rnini qoplash qiymatlarida baholanadi;

3.3. Nomoddiy aktivlarni baholash korxonaning hisob siyosatida keltirilgan qiymatlarda baholanadi.

Talabalardan javoblar eshitilgach, namunaviy texnologiya tayyorlanishi jarayonida o`qituvchi tomonidan kutilgan javoblar bilan solishtiriladi va ularning ichidan eng maqbullari tanlanadi hamda tanlangan javoblar asosida mavzu bo`yicha xulosa chiqariladi. Shuningdek mazkur texnologiyani **“Nima uchun” sxemasi** va **“Qanday” ierarxik diagrammalari** orqali ham amalga oshirish mumkin.

“Nima uchun” sxemasi muammoni kelib chiqishining dastlabki sababini borgan sari chuqurlashib boruvchi fikrlar zanjiri tarzida yechishni o`rgatuvchi

metodidir. Metod tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi hamda o'quvchi-talabalarni faollashtiradi.

“Nima uchun” sxemasini tuzish.


“Nima uchun” sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Individual, kichik guruhlarda jadvalni qo'llashni o'rganadilar. Ajratilgan vaqt orasida o'rganilayotgan mavzuga tegishli muammoni aniqlaydilar. Uning kelib chiqish sababini chizma orqali ifodalaydilar. “Nima uchun” so'rog'ini beradilar va chizadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom etadi.

O'quvchi-talabalar kichik guruhlarga birlashadilar, guruhning boshqa a'zolarining chizmalari bilan tanishadilar, muhokama qilib, umumiy chizmaga keltiradilar. Ish natijalari taqdimot qilinadi va muhokama qilib, baholanadi.

“Nima uchun” sxemasini tuzish qoidalari

1. Qanday piktogrammadan (aylana, to'rtburchak yoki boshqa) foydalanishni o'zingiz tanlaysiz.
2. Mulohazalar zanjiri – sxema ko'rinishi ham o'zingiz havola.
3. Strelka sizning fikr yo'nalishingiz(dastlabki holatdan oqibatgacha qidiruv yo'nalishingiz)ni belgilaydi.

«Qanday?» ierarxik diagrammasi. Vujudga kelgan muammomi yechish, yechish uchun esa sababini aniqlash zarur. Sababini aniqlagach, uni qanday yo'llar bilan haletish, bartaraf qilish muin? degan savolga javob berishni o'rganish muhim ahamiyatga ega. «Qanday?» ierarxik diagrammasi ana shuni o'rgatadi va shunday hollarda samarali natija beradi. «Qanday?» ierarxik diagrammasi muammo haqida bir butun holda umumiy tasavvurga ega bo'lishga imkon beradigan savollarning mantiqiy zanjiri ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'yish orqali faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullari ham o'rganiladi.




3-chizma. “Nima uchun” texnikasining sxemadagi ko’rinishi.¹⁹

“Qanday?” diagrammasini qurish qoidalari.

1. Diagramma strategik darajadagi savollar bilan ishlashni boshlaydi. Muammoni yechishning pastki darajasi birinchi galdagi harakatlarning ro’yxatiga mos keladi.
2. Barcha g’oyalarni o’ylab o’tirmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezlikda yozish kerak.
3. Diagramma hech qachon tugallangan bo’lmaydi: unga yangi g’oyalarni kiritish mumkin.
4. Agarda chizmada savol uning “shoxlarida” bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatadi. U muammoni yechishning asosiysi bo’lishi mumkin.
5. Yangi g’oyalarni grafik ko’rinishda: daraxt yoki kaskad ko’rinishidami, yuqoridan pastgami yoki chapdan o’ngga qayd qilinishini o’zingiz hal etasiz.
6. Agarda siz o’zingizga to’g’ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo’nalishini namoyon bo’lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan echimini topishingizni kafolatlaydi.

¹⁹ Ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



4-chizma. «Qanday?» iyerarxik diagrammasining sxemada ko'rinishi²⁰.

“Qanday” savolini izchil berilishi tufayli:

- muammoni yechish nafaqat bor imkoniyatlarni, balki ularni amalga oshirish yo'llarini ham tadqiq qilish;
- quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo'ysunadigan ierarxik fikrlar tuzilmasi shakllantiriladi.

Skarabey texnologiyasini yuqorida keltirilgan metodlar bilan birga qo'llanganda talabalarning erkin va mustaqil fikrlashi uchun qulay sharoit yaratiladi, chunki texnologiyani qo'llash talablarida aytilganidek har bir talaba o'z fikrini bildirishi kerak. Shu talab asosida dars tashkil etish pirovard natija tomon qo'yilgan ilk qadamdir. Bugungi kunda tezkor rivojlanish tendensiyalari jadallashib, inson kapitaliga ehtiyojning tobora ortishi hamda vaqt tejamkorligini ta'minlash uchun o'quv yurtlarida darslarni tashkil etish hamda unga mos metodni tanlashda “Skarabey” texnologiyasi eng samarali metoddir, sababi u vaqt taqsimotini ham nazorat qilish imkonini yaratadi.

3.2. Nomoddiy aktivlar hisobi mavzusi bo'yicha ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish.

Ma'lumki, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida Respublikamiz ta'lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Soha xodimlariga

²⁰ Kasbiy fanlar metodikasi jurnali. 2013-yil iyul. 5-bet.

zarur shart-sharoit yaratilib, ta'lim mazmuni va sifatini takomillashtirish borasida qator vazifalar amalga oshirilmoqda. Mavjud vazifalarning asosi sifatida professor-o'qituvchilarning uzluksiz ta'lim tizimidagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha olib borayotgan ishlarini tahlil qilish, Davlat ta'lim standarti talablarining o'zlashtirilishi, pedagogik texnologiyalarga oid izlanishlarni o'rganish, kuzatish va ommalashtirish, mavjud muammolarning yechimini topish kabilarni keltirish mumkin.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan buyon mamlakatimiz ta'lim tizimini isloh qilishning asoslari, tamoyillari va bosqichlari belgilab berilganligini alohida ta'kidlash lozim. Milliy dasturning ikkinchi bosqichida ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash alohida ko'rsatib o'tilgan. Unda ta'lim jarayoniga mazkur texnologiyani joriy etish mamlakatimiz ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilishi bejiz emas. Chunki, pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini inqirozdan holi etish, uni bozor iqtisodi sharoitiga mos holda takomillashtirish va Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning tub mohiyati, o'qitishning an'anaviy ogzaki bayon qilish usulidan voz kechib, talabalarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga undashdan iborat. Uning predmeti ta'lim jarayoni va professional tayyorgarlik tizimini loyihalashdan iborat. Tizimli yondashish o'qitish tizimining barcha asosiy tomonlarini, maqsadni aniqlash va ta'lim jarayonini loyihalashdan tortib, to yangi o'qitish tizimining samaradorligini tekshirish, uni sinovdan o'tkazish va ommalashtirishgacha bo'lgan jarayonni o'z oladi. Pedagogik texnologiyaning samaradorligi shundan iboratki, unda talabalar muayyan fan mutaxassislik bo'yicha deyarli bir xil yakuniy natijaga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa barcha ta'lim muassasalariga yagona Davlat ta'lim standarti talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash vazifasi yuklatilgan hozirgi davrda pedagoglar uchun nihoyatda muhim hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya doirasida yaratilgan turli xil didaktik konstruktsiyalarga murojaat qilish, ta'lim jarayonini tashkil qilishga oqilona va ijodiy yondashishga, bunda pedagog o'z erkinligiga ega bo'lishi, darsda qo'llanilgan turli shakl, uslub va vositalar samaradorligi o'zi baholashiga imkoniyat yaratadi. Shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik texnologiya tamoyillari va qoidalariga amal qilish, ta'lim jarayoni mazmunini talaba shaxsiga, uning qiziqishlari, intilishlari, yosh xususiyatlariga va individual o'zlashtirish sur'atlariga muvofiq holda olib borilishini ta'minlaydi. Mazkur texnologiya, shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida kelajakda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, pedagog faoliyati yangilanadi, talabalarda bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

Pedagogik texnologiya o'qitish jarayoning o'zaro bog'liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarni qurish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydi. Yoxud bu texnologiya pedagogning kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'indisidir.

Shuning uchun ham mamlakatimiz ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyaga qiziqish ortib unga turlicha qarashlar va bu tushunchani o'ziga xos talqin qilishlar, shuningdek, pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga joriy etishga ham turlicha yondashuvlar sodir bo'lmoqda. Barcha ta'lim muassasalarida bu texnologiyalarni joriy etish bo'yicha aniq maqsad sari samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga joriy etish masalasida o'z aksini topgan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazilmoqda, o'quv-uslubiy qo'llanma, tavsiyanomalar yaratilmoqda va amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Shunday ekan, bugungi kunda Respublikamiz olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga intilmoqda. Barcha ta'lim muassasalari ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish holati bo'yicha ma'lum ishlar amalga oshirilmoqda, xususan:

➤ aksariyat muassasalarda professor-o'qituvchilar ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha seminar-treninglardan o'tkazilmoqda;

➤ fanlardan o'quv va ishchi o'quv dasturlarida qo'llash bo'yicha takliflar kiritilmoqda;

➤ ma'ruza matnlarining texnologik xaritasi tuzilmoqda;

➤ ayrim holatlarda slaydlar, ko'rgazmali materiallar tayyorlanmoqda va ta'lim texnologiyalarining elementlari qo'llanilmoqda.

Jamiyatda barkamol, yetuk komil insonni tarbiyalashda uning istiqbolini ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimini qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Mustaqil O'zbekiston diyorida ta'lim tizimini isloh qilish uni yangi bosqichga ko'tarish, hamda samaradorlikka erishish shuningdek, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini tadbiq etishga davlatimiz va hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik sh murabbiylikdir, desak o'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz".²¹ Chindan ham ertangi kunimizning davomchilari bo'lmish yosh avlodni ta'lim-tarbiyasiga davlat va millat manfaatiga dolzarb masala sifatida e'tibor qaratilmoqda.

"Ta'lim to'g'risida "gi Qonun va Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi"ni qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash asosi yaratildi. Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan yosh avlodning kelajagiga, istiqboliga, ta'lim-tarbiyasiga mas'ul bo'lgan ustoz va murabbiylarning kasbiga bo'lgan munosabat ham tubdan o'zgardi. Shunday ekan, bugungi kun pedagoglarining asosiy vazifasi ta'lim va tarbiya bilan bog'liq bo'lgan barcha yangiliklarni o'rganilayotgan fanning mohiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim jarayoniga tatbiq etish va amalga oshirishdan iborat.

²¹ I.A. Karimov "Xalq so'zi" gazetasi 2011 yil 17 sentabr.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishga e'tibor yanada ortib borayotgan bir vaqtda ta'lim mazmunini va sifatini takomillashtirishni bugungi kunda yangi pedagogik innovatsiya yo'nalishisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ta'lim tizimida innovatsion jarayonlar va innovatsion yangiliklarni joriy etish o'qituvchining kasbiy imkoniyati bilan belgilanadi. Jumladan, buxgalteriya hisobi fanini o'qitishda ham zamonaviy o'qitish usullari interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rnini va ahamiyati beqiyosdir.

Ta'lim muassasalari pedagog - o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalarda o'quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilar deb ta'kidlangan:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiyalar yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.²²

Shunday ekan, an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallaydigan bilimlarni qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatsa, o'qituvchi shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda

²² Iqtisodiyot va ta'lim 2007yil 3-son 22-bet.

boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bu holatda talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalari va fakultetlarda malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarni o'rni va rolini oshirib borish lozim. Jumladan, buxgalteriya hisobi ta'limi tizimida har bir dars, mavzu o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyalari bor. Ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'qituvchi talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Buxgalteriya hisobi ta'limini texnologiyalashtirish obektiv jarayon ekanligini, zamonaviyligi esa, ilmiy texnik taraqqiyoti yo'nalishi bilan belgilanganligini e'tirof etgan holda pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos tomonlarini va yaqin kelajakda u bilan bog'liq vazifalarni quyidagacha belgilash mumkin:

- Ko'p bosqichli ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarning o'rnini asoslash va zaruriy tavsiyanomalar ishlab chiqish;

- Zamonaviy sanoat, tibbiyot, iqtisodiyot, ekologiya kabi soha texnologiyalari bilan pedagogik texnologiyalarni muntazam ravishda yangilab borish va tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ularni qo'llash mezonlarini aniqlash;

- Istiqbolli o'qitish vositalarini yaratish va ularga tayangan holda ilg'or pedagogik texnologiyalarni loyihalash, amaliyotga joriy etish, om-malashtirish va samarasini aniqlash;

- Tegishli boshqaruv tashkilotlari (Ta'lim markazlari) tomonidan o'quv muassasalari faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etilishi darajasini nazorat qilish va baholash;

- Respublikamiz oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor - o'qituvchilarni malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bo'yicha yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzluksiz tashkil etish;

➤ Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkor o'qituvchilarning ish uslublarini muntazam o'rganib borish va ular tomonidan yaratilgan metodlarni yangi pedagogik texnologiya darajasiga ko'tarish borasidagi ishlarni amalga oshirish kabilar.

Pedagogik texnologiya o'qitish jarayonida qo'llanilgan u yoki bu turdagi texnik vosita emas, pedagogik texnologiyaning asosiy negizi ta'lim jarayonida maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan hamkorlik faoliyati hamda ijobiy natijaga erishish. Pedagogik texnologiya - bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Shunday ekan Prezidentimiz Islom Karimovning: "Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur"²³, - degan ko'rsatmalarini unutmasligimiz va har bir fan o'qituvchisi texnologiyalarni loyihalashga ijodiy yondashishi lozim.

Bilim, o'quv va ko'nikmalari, ya'ni malaka darajasi ishlab chiqarish talablariga javob beruvchi professional kadrlarni tayyorlash va tanlash muammolari uzoq yillardan beri o'zining dolzarb ahamiyatini saqlab kelmoqda. Mazkur sohada ish ko'rish va tartibga solishning yanada samaraliroq va ishonchliroq yondashuvlarini yaratish amalga joriy etish zarurati hozirgi zamon jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini yechishda inson kapitalining tobora o'sib borayotgan ahamiyati bilan belgilanadi.

Shunday ekan, doimo kirib kelgan yangiliklar oldida ma'lum bir muammolar turadi. Dars jarayonini ta'lim texnologiyalari orqali tashkil etishning ikki bosh yo'nalishi mavjud- ta'lim mazmunini va ta'lim iqtisodiyotini tubdan yangilash. Uning asosiy vazifalari – ta'limning ochiqlik darajasi, sifati va samaradorligini oshirish, agar biz ana shu muammolarni bartaraf etmasak, ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil eta olmaymiz, natijada

²³ Ta'lim muammolari jurnali 2012yil 4-son.

so'ralayotgan yetuk kadrlar ham muammo bo'lib qoladi. Ma'lumki, o'quv jarayonida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish avvalo ta'lim tizimidagi islohotlarni izchillikda amalga oshirish uchun tashkil etiladi. Buxgalteriya hisobi fani bo'yicha, xususan nomoddiy aktivlar hisobi mavzusi bo'yicha darsni tashkil etishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga, quyidagilarga imkon beradi:

- O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida yuzaga keladigan pedagogik muloqotning samaradorligini oshirish;
- obyektlar, jarayonlar va hodisalar qonuniyatlari to'g'risidagi o'quv axborotlaridan samarali va keng foydalanish;
- reja-savolni o'zida mujassam etuvchi katta hajmdagi axborotlardan osonlik bilan foydalanish va o'quvchi-talabaga yetkazib berish;
- hisoblash, axborot izlash faoliyati, shuningdek o'quv eksperiment natijalarini qayta ishlash va yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik maqsadlarini shakllantirish va ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish;
- o'quv – tarbiya jarayonini jadallashtirish bunga o'qitish samaradorligini oshirish va sifatini oshirish, bilishni faollashtirish va rag'batlantirish, o'yinli vaziyatlarni yaratish, o'quv faoliyati tartibini tanlash va boshqalar kiradi;
- o'qitishda fanlararo aloqalarni chuqurlashtirish.

Buxgalteriya hisobi fanini o'rganishda ayniqsa, nomoddiy aktivlar hisobi mavzusini o'zlashtirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni va qo'llash yo'llarini samarali tashkil etish juda muhim ahamiyat kasb etadi, negaki hozir rivojlanib kelayotgan bozor iqtisodiyoti sharoiti har lahzada o'zgarishda va bir soat oldin olgan yangi ma'lumotimiz eski bo'lib qolishi mumkin. Ana shu holatga tushmaslik uchun tizimda axborotlashgan jamiyat barpo etish, hamda ta'limning innovatsion texnologiyalarni kengroq joriy etish talab etiladi.

Innovatsiyalar bilimlarni amalga tatbiq etishning asosiy shakli va bilimga asoslangan iqtisodiyotning muhim omili hisoblanadi. Iqtisodiy tadqiqotlar innovatsiyalarning bugungi kunda korxonalar, mintaqalar va milliy iqtisodiyotlar o'sishi raqobatbardoshlik darajasining asosiy manbai ekanligini tasdiqlaydi. Mutaxassislarning hisob – kitobiga ko'ra so'nggi 12 yillik mobaynida rivojlangan

mamalakatlarning iqtisodiy o'sishi asosan innovatsiyalar bilan belgilanishini ko'rsatadi, bu o'quv jarayoniga texnologik yondashuvning jadallashayotganidan dalolatdir. Bilim va innovatsiyalarning muhimligini anglab yetish ta'lim tizimini boshqarishning hozirgi yo'nalishlarini shakllantiradi. Ular bozorda oliy o'quv yurtlarining xulq-atvori va ularning rivojlanish strategiyasini ko'p jihatdan belgilaydi.

Hozirgi zamon ta'limi axborot va kommunikatsion texnologiyalarsiz shakllanishi va rivojlanishi mumkin emas. Bu texnologiyalar ta'lim faoliyatining turli sohalariga tobora kengroq kirib kelmoqda. Bunga jamiyatni keng ko'lamli axborotlashtirish tashqi omillari, bilimdon mutaxassislar tayyorlash zarurati, zamonaviy kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minotni tarqatish, ta'limni axborotlashtirishga doir davlat va davlatlararo dasturlar qabul qilish bilan bog'liq ichki hamda tashqi omillar ko'maklashmoqda. Ayniqsa, bugungi kun ta'lim jarayonida ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni samarali tashkil etishda axborotlashtirish vositalaridan foydalanish aksariyat hollarda pedagoglar mehnatini intensivlashtirishga, shuningdek, turli ta'lim tizimlarida ta'lim oluvchilarni tayyorlashning samaradorlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quv jarayonini ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishda axborot texnologiyalarini qo'llash ta'lim tizimini o'zgartirish va ta'lim jarayonining sifatini oshirish vazifalarini hal qilish imkoniyatini beradi. Chunonchi, yangi axborot texnologiyalari ta'limning har bir bosqichida uning sifatini kuzatib borish, ta'limning sifatiga innovatsion texnologiyalar ta'sirini aniqlashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun imkoniyat yaratadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishim lozimki, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash jarayonida amalga oshirilayotgan ishlar ijtimoiy hayotimizning deyarli barcha jabhalarida tadbiq etilayotgan bir paytda, aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish va yangi iqtisodiy tafakkurni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj tobora dolzarb muammo bo'lib bormoqda. Shu bois, xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob yuritish faoliyati, xususan korxonalarda "Nomoddiy aktivlar hisobi"ni yuritish, o'quvchilarni mavzuning sir – asrorlaridan xabardor etish uchun ta'lim jarayonida o'qitish samaradorligini oshirish, ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Zero, har bir davlat taraqqiyoti yuksak malakali, zamonaviy ilm-fandan boxabar, zakovatli mutaxassislar darajasi bilan belgilanadi. Yuksak malakali kadrlar tayyorlashning muhim talabi esa bu – ularda ijodkorlikni va mustaqillikni rivojlantirishdir. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonida ilg'or ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish va bu orqali ta'lim samaradorligini oshirish bilan bog'liq ekanini anglash qiyin masala emas. Men o'z bitiruv malakaviy ishimni yozish jarayonida shu narsaga amin bo'ldimki, ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv hamda pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, darslarni ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishdan maqsad – ta'lim sifatini oshirish va bu orqali ta'lim oluvchilarning yangi bilimlarini mustahkamlab borishga odatlantirish, fanlardan berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida tayyorlash, kerakli adabiyotlarni topish, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini, keng qamrovli demokratik islohotlarni, fuqarolik jamiyati asoslarini yaratilayotganini, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqeini yanada oshib borayotganini teran tahlil etish va to'g'ri baholashga o'rgatish, yangicha dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z ustida muntazam, qunt bilan ishlash qobiliyatini o'stirishdir.

Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va uni dars jarayonida qo'llash eng avvalo, mustaqil mutolaani, balki mustaqil motivatsiya va muqaddimani hosil qilishni ham talab etadi. Aynan shu bois ham darsga tayyorgarlik jarayoniga alohida e'tibor qaratish zaruriyati paydo bo'ladi.

Bundan tashqari ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligini ta'minlashda tanlangan mavzularning ilmiyligi, tizimliligi, o'quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog'liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek beriladigan topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhim ahamiyatga ega.

Men bitiruv malakaviy ishimni yozish jarayonida ko'pgina izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga ega bo'ldim.

➤ Iqtisodiy soha bo'yicha yetishib chiqayotgan mutaxassislarni tayyorlashda mashg'ulotlarni ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish jarayoni ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsad sari odimlayotganini isbotlaydi;

➤ Bugun shiddat bilan o'zgarib borayotgan texnika – texnologiyalar asrida ta'lim tizimida ro'y berayotgan yangilik va erishilayotgan yutuqlar sohada faoliyat yuritayotgan malakali pedagoglar tomonidan ta'lim texnologiyalarini mohirlik bilan dars jarayonida qo'llanilgani va maqsadga erishilayotganligidan dalolat beradi;

➤ Barkamol avlodni tayyorlashda bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'limning ilg'or texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiiq etish bo'yicha xorij ta'lim muassasalari tajribasidan foydalangan holda takomillashtirish ham ancha maqsadga muvofiq amalga oshirilayotganligidan boxabar bo'ldim. Darslarda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'quvchi(talaba)larning intellektual didaktik vositalar majmuasi hamda axborot texnologiya vositalaridan foydalanishlari va buning natijasida xorij ta'lim muassasalari faoliyatlari bilan mustaqil tanishish imkoniyati paydo bo'ladi. O'quvchi(talaba)larning xorij va respublikamiz miqyosida o'tkaziladigan konferensiyalarda ishtirok etishlari imkoniyatlari yanada kengayadi.

Bulardan tashqari ko'pgina adabiyotlar bilan tanishish natijasida shunday xulosaga keldimki, ta'lim jarayoni uchun mos texnologiyani tanlash muhim ahamiyat kasb etar ekan. O'ylaymanki, dars jarayoni uchun muvofiq tanlangan texnologiya asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni quyidagilarga imkon beradi:

1. Ta'lim tizimini avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazalari yordamida boshqarish, axborot vositalari va texnologiyalari bilan ta'minlash;
2. Ta'lim va tarbiyaning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini tanlash metodologiyasini takomillashtirish;
3. Ta'lim oluvchilarni aqliy rivojlantirishga, ularda mustaqil axborot izlash, tajribalar o'tkazish, tadqiqotlar olib borish, qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan metodikalarni yaratish;
4. Ta'lim oluvchilarning bilim darajasini ob'yektiv, tizimli va tezkor nazorat qilish va baholashga imkon beruvchi testlar va diagnostik metodikalarni ishlab chiqish;
5. Ta'lim oluvchilarning salohiyatini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil egallash, axborotlarni qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'qitish tizimlarini yaratish;
6. Eng asosiysi eng taqchil resurs bo'lgan vaqtdan unumli foydalanish hamda pirovard maqsadni amalga oshirish.

Yuqoridagi fikrlardan umumiy xulosa qilib aytishim mumkinki, ta'lim texnologiyalaridan foydalanish nafaqat iqtisodiy fanlar uchun balki, barcha fanlar tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari ta'lim texnologiyalari, bugungi kun ta'lim tizimi oldiga qo'ygan bosh maqsad - raqobatbardosh kadrlar yetishtirishning eng muhim omilidir. Shuni ham unutmaslik kerakki, **ta'lim texnologiyalari – bu mutaxassisning kasbiy faoliyati vositasi sanaladi.**

Ma'lumki, har qanday ishda afzallik va kamchiliklar mavjud bo'lib, ularni samaradorligini oshirib borganimiz sayin qulayliklari orta boradi. Men ham **“Nomoddiy aktivlar hisobi” mavzusini o'rganishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va qo'llash yo'llari**” yuzasidan quyidagi takliflarimni bildirib o'tmoqchiman:

1. Ta'lim jarayoni markazida turib, uning borishi uchun mas'ul shaxs – pedagog har qanday fan bo'yicha dars berishidan qat'iy nazar ta'lim jarayonini qiziqarli va o'quvchilar faolligini ta'minlash borasida yetarlicha bilimga ega bo'lishi lozim. Undan keyin pedagogik mahoratni shakllantirishi va rivojlantirishi,

hamda rivojlantirilgan mahoratiga asoslanib mavzuning hususiyatini inobatga olib ta'lim texnologiyasini tanlasin.

2. Ta'lim texnologiyalarini toifalashtirish. Bu ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga mos keluvchi ta'lim texnologiyalarini nazarda tutadi. Mashg'ulot turiga muvofiq tanlangan ta'lim texnologiyasi ta'lim samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Masalan, "Buxgalteriya hisobi" fani bo'yicha ma'ruza darslarida masala-mashq metodi kutilgan natijani bermaydi, uni ko'proq seminar darslarida qo'llagan ma'qul.

3. Dars jarayonida ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda uzluksizlik, yaxlitlik va bog'liqlikni ta'minlash kerak. Ta'lim texnologiyalarini tanlashda albatta o'tiladigan mavzularga ham e'tibor qaratish kerak, ular o'rtasida uzilish bo'lmasligi lozim.

4. Ixtiyoriy fan yuzasidan "texnologik xarita" tuzish. Buni tuzish, ta'lim texnologiyalarini sistemali yondashuv asosida amalga oshiradi hamda faqat bitta reja –savol bo'yicha emas, balki butun mavzuni ochib berishda texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanishni ta'minlaydi.

5. **Nomoddiy aktivlar hisobi** mavzusida darsni tashkil etish va o'tkazish uchun "Skarabey" texnologiyasini "Nima uchun" sxemasi hamda "Qanday?" ierarxik diagrammasi metodlari bilan birgalikda qo'llash dars samaradorligini yanada oshiradi, chunki bu texnologiya va metodlar birgalikda qo'llanilganda: 1-dan, o'quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashini; 2-dan, hamma o'quvchilarni dars jarayonida mavzudan og'ishmay qatnashishlarini; 3-dan, o'qituvchi tomonidan nazoratni amalga oshirish uchun imkoniyatning yaratilishi hamda mavzuni to'liq o'rganilishi, eng asosiysi esa vaqtdan unumli foydalanishni kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T. Sharq,2010-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. Toshkent sh.,1997-yil 29-avgust 464-I-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'zbekiston Respublikasi 29.08.1997-yil qonuni bilan tasdiqlangan.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to’g’risida”. 11.12.2012-yil, 240(5660)-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy – texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora – tadbirlari to’g’risida”. 2011-yil 20-maydagi PQ-1533-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi 343-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “O’rta maxsus, kasb – hunar ta’limi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora – tadbirlari to’g’risida”.
8. O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari tizimi. Tuzuvchilar: Sh.Ro’zinazarov, L.Krutsova, G’.Mashkurov, U.Aloyev. T: “O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoring institute”-2009.
9. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari. U. Tojixonov, A.Saidov. O’RIIV akademiyasi. T: “Adolat” 2000.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari va ma'ruzalari.

10. Karimov I.A. asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va farovonligini yanada yuksaltirishdir. Toshkent-“O'zbekiston”-2010.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2012-yilda mamalakatimizni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish” mavzusidagi ma'ruzasi. Toshkent- 2013yil.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. “Xalq so'zi”, 2012-yil 18-fevral.
13. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
14. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. Toshkent “Sharq”1998.
15. Karimov I.A. “Yuksk ma'naviyat-yengilmas kuch”. Toshkent “Sharq”2008.

Darslik va o'quv adabiyotlari:

16. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar – T.:Iste'dod, 2008.
17. B.Xodiyev, L.Golish “ Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari”. O'quv qo'llanma.T.:2007y.
18. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv – uslubiy qo'llanma. “Zamonaviy ta'lim texnologiyalari” turkumi. – T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2009
19. D.Tojiboyeva, A.Yo'ldoshev. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik.T.:”Aloqachi”, 2009.

20. I.R.Rajabova. Kasb – hunar kollejlari adabiyot darslari samaradorligini oshirishda interfaol usullardan foydalanish yo'llari: Ped. Fan nomz. Dissertatsiyasi. T: 2011-yil, 36-bet.
21. Q. Ishmatov "Pedagogik texnologiya asoslari" NMPI Namangan 2005.
22. I. Inomov "Iqtisodiy tarbiya nazariyasi" o'quv qo'llanma. Toshkent 2005.
23. Karimov A, Islomov F va Avlokulov A "Buxgalteriya hisobi" Toshkent "Sharq" 2004.
24. I. Rahimov va boshqalar "Mutaxassislikka kirish" muammoli ma'ruzalar to'plami. NMPI. Namangan 2005. 9-bet.
25. F.G'ulomova "Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma" T: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" 2009.
26. Bobojonov O. va Jumaniyozov K. Moliyaviy hisob. Toshkent "Mehnat"2005.
27. F. G'ulomova "Noldan balansgacha" va "Moliyaviy hisob I" kurs qo'llanmasi. TDIU 2011.
28. "Buxgalteriya hisobi" A. Karimov, F. Islomov va A. Avloqulov. Tosh 2003yil.
29. "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" darslik. B. Hoshimov. Toshkent "Yangi asr avlodi" 2004
30. "Buxgalteriya hisobi" M. Umarova, O'. Eshboyev va K. Ahmadjonov Toshkent "O'AJBNT" Markazi-2004.
31. E.Gadoyev va boshqalar. "Buxgalteriya hisobi" savollar va javoblar. Toshkent: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" 1996.
32. F. G'ulomova "Buxgalteriya hisobi bo'yicha mustaqil o'rganish uchun qo'llanma" Toshkent 2005.
33. Astanakulov M. Buxgalteriya hisobi Toshkent "Mehnat" 1995.
34. Sotvoldiyev A.S va boshqalar. Zamonaviy buxgalteriya hisobi "O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar Milliy Assotsiatsiyasi" Toshkent 2002.
35. M. Umarova va boshqalar. Buxgalteriya hisobi Tosh. "Mehnat" 2004.
36. A. Abdullayev va I. Qayumov Buxgalteriya hisobi II-nashr O'R "Minhoj" nashriyoti 2002.

37. A. A. Abdullayev va boshqalar “Moliyaviy hisob” o’quv qo’llanma Toshkent 2005.
38. X. Bakiyeva va N. Rizayev Buxgalteriya hisobio’quv qo’llanma T: “Iqtisod-Moliya”2007.
39. I. Ochilov. J. Qurbonboyev Moliyaviy hisob o’quv qo’llanma T: “Iqtisod-Moliya”2007.
40. B. Bolibekov. A. Musayev va B. Turabbayev Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish o’quv qo’llanma. Toshkent “Iqtisod-Moliya” 2013.

Gazeta va jurnallar.

41. Ma’rifat gazetasi. 18-avgust 2012-yil.
42. Ma’rifat gazetasi. № 51.2012-yil 27-iyun.
43. D.Rustamova. Innovatsion ta’lim. “Kasbiy fanlar metodikasi”№2(14) 2012-yil.
44. “Iqtisodiyot va ta’lim” ilmiy-uslubiy jurnal. 2007yil 3-son.
45. “Ta’lim muammolari” jurnali 2012yil 4-son.
46. “Xalq so’zi” gazetasi 2011yil 17 sentabr.
47. “Kasbiy fanlar metodikasi” jurnali. 2013-yil iyul. 5-bet.
48. ”Kasbiy mahorat” jurnali. 2012-yil 3-son.
49. “Ta’lim texnologiyalari” ilmiy-uslubiy jurnal. 2013-yil № 2(40) 54-bet.
50. “Zamonaviy ta’lim” ilmiy-amaliy, ommabop jurnal. 2014-yil № 1-2.

Internet saytlari:

- www.pedagog.uz
- www.Ziyonet.uz
- www.tdiu.uz
- www.tfi.uz
- www.nmpi.uz